

ResearchBib Impact Factor: 10.57 / 2024
SJIF-2023: 3.825, 2024: 5.333



TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN

Research Science and
Innovation House

OUR INDEXING



ISSN: 2992-9148 <http://universalpublishings.com>

ResearchBib Impact Factor: 10.57/ 2024
SJIF-2023: 3.825, 2024: 5.333



TECHNICAL SCIENCE
RESEARCH
IN UZBEKISTAN



Research Science and
Innovation House

VOLUME 3 **ISSUE 05**

MAY 31, 2025

editor@universalpublishings.com

<http://universalpublishings.com>

«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy
jurnali: 31.05.2025-yil.

Ushbu to'plamda «TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 3-soni 5-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



Research Science and
Innovation House

“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Eshkarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Bosh muharrir, Eshkarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Roumyana Pancheva, Janubiy Kaliforniya universiteti

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Choriyevich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Falsafiy fan muharriri Floris Rulofsen, Amsterdam universiteti

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti dekani, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Maribel Romero, Konstanz universiteti

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xo‘jamberdiyev Ikromovich – Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Filologiya fanlari muharriri Yael Sharvit, Kaliforniya universiteti, Los-Anjeles

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, professor Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Benjamin Spector, National de la Recherche Scientifique markazi

Iqtisod fanlari muharriri, Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Yasutada Sudo, London Universitet kolleji

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, ijtimoiy va gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Zoltan Gendler Szabo, Yel universiteti

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, tibbiyot fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston

Falsafa va tilshunoslik muharriri Aleksis Uellvud, Janubiy Kaliforniya universiteti

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali., biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Faslafa fanlari muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jurayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

Texnika fanlari muharriri Hasan Soyibnazarovich Beknazarov Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, texnika fanlari doktori, professor.

Texnika fanlari muharriri Hamroqul. A.Ravshanov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, texnika fanlari doktori.

O'ZBEKISTON SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH

Holmirzayeva Gulruh Akbarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Investitsiya va innovatsiya kafedrası
assistenti

gulruxxolmirzayeva@gmail.com

Tojiboyev Javlonbek Ravshanbek o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

tojiboyevjavlon844@gmail.com

Sharipov Boymurod Hatam o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

sharipovboymurod1995@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ilmiy va innovatsion tizimlarni rivojlantirishning muhim jihatlarini ko'rib chiqadi. Xususan, ilmiy resurslarni kengaytirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion tizimlarni kuchaytirish, ilmiy jurnallarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va ilmiy-tadqiqot sohasida shaffoflikni ta'minlash kabi masalalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda tavsiya etilgan chora-tadbirlar O'zbekistonning ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro ilmiy jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlash va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan qadamlarni belgilaydi.

Kalit so'zlar: Ilmiy resurslar, xalqaro ilmiy hamkorlik, innovatsion tizim, ilmiy jurnallar, tijoratlashtirish, shaffoflik, ilmiy tadqiqotlar, O'zbekiston, innovatsion iqtisodiyot.

Аннотация: Данное исследование рассматривает ключевые аспекты развития научных и инновационных систем. В частности, анализируются такие вопросы, как расширение научных ресурсов, развитие международного научного сотрудничества, укрепление инновационных систем, поддержка научных журналов, коммерциализация научных исследований и обеспечение прозрачности в научной деятельности. Предложенные меры в исследовании определяют необходимые шаги для повышения научного потенциала Узбекистана, укрепления его позиций в международном научном сообществе и значительного вклада в развитие инновационной экономики.

Ключевые слова: Научные ресурсы, международное научное сотрудничество, инновационные системы, научные журналы,

коммерциализация, прозрачность, научные исследования, Узбекистан, инновационная экономика.

Abstract: This research examines key aspects of the development of scientific and innovative systems. Specifically, it analyzes issues such as expanding scientific resources, enhancing international scientific collaboration, strengthening innovation systems, supporting scientific journals, commercializing scientific research, and ensuring transparency in scientific research. The proposed measures in the study outline the necessary steps to improve Uzbekistan's scientific potential, strengthen its position in the international scientific community, and contribute significantly to the development of an innovative economy.

Keywords: Scientific resources, international scientific collaboration, innovation systems, scientific journals, commercialization, transparency, scientific research, Uzbekistan, innovative economy.

Kirish

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki texnologik va ilmiy innovatsiyalarni amalga oshirish uchun katta mablag' talab etiladi. Innovatsiya - bu nafaqat yangi g'oyalar va tadqiqotlarni amalga oshirish, balki ularni moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash va boshqarishdir. Bugungi kunda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning ko'plab modellari mavjud bo'lib, ular xususiy sektor, davlat byudjeti, xalqaro grantlar, startaplar uchun venchur kapital hisobidan amalga oshirilmoqda. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning tegishli tizimi iqtisodiyotning yuqori texnologiyalar asosida rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va raqobatbardoshlikning o'sishiga olib keladi. Moliyalashtirish mexanizmi texnologik taraqqiyot ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Moliya, shuningdek, innovatsion startaplar va tadqiqot va ishlanmalar uchun asosiy yordam vositasidir. Har bir innovatsion loyiha uni samarali qilish uchun yangi moliyaviy vositalar va usullarni talab qiladi.

Jumladan O'zbekistonda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi PF-165-sonli "2022 — 2026-yillarda davomida O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga binoan strategiyaning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

— innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

— kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘shirishini ta‘minlash;

— yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g‘oyadan yakuniy iste‘molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta‘minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish kabilardir[1].

Endilikda innovatsiyalarni moliyalashtirishda bir qator muammolar mavjud. Davlat va xususiy sektorda joriy moliyalashtirish mexanizmlarining samarasizligi va resurslarni taqsimlashdagi xatolar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, innovatsion loyiha uchun resurslarni jalb qilishda tavakkalchilik va natijada uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladigan loyihalarning yetarli darajada moliyalashtirilmasligi muhim omillardan biri sifatida tan olinishi kerak.

Adabiyot sharhi

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari ko‘plab xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular turli yondashuvlar va mexanizmlarni taklif etganlar. Mazkur adabiyotlar sharhi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi asosiy nazariy-metodologik yondashuvlarni va amaliy tajribalarni tizimlashtirishga qaratilgan.

Schumpeter innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlarini o‘rganish jarayonida, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishda bank tizimining ahamiyatini alohida ta‘kidlagan [3]. Uning fikricha, kredit mexanizmi innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilishda Kaplan va Stromberg innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur fondlarining rolini tadqiq etganlar [4]. Mualliflar venchur kapitalini jalb qilishning asosiy omillari va mexanizmlarini aniqlashga harakat qilganlar hamda risk-menejment tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqanlar.

O‘zbekiston sharoitida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari Abdullaev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [5]. Tadqiqotchilar mamlakatimizda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy muammolari va istiqbollarni aniqlash holda, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanlar.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari Yusupov tomonidan chuqur tahlil qilingan [6;15].

Muallifning ta’kidlashicha, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hodiev innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda soliq imtiyozlarining rolini tadqiq etgan[7]. Tadqiqotchi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni rag‘batlantirishda soliq mexanizmlaridan foydalanishning samarali yo‘llarini taklif etgan.

Xalqaro tajribani o‘rganish doirasida Mazzucato innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlatning rolini o‘rgangan va “tadbirkor davlat” konsepsiyasini ilgari surgan [8]. Muallif innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat institutlari faoliyatining muhimligini ta’kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, statistik abstrakt va mantiq fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini baholash uchun 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida chuqur tahlil o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jadvalda 2019-2023 yillar oralig‘ida korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar aks ettirilgan.

1-jadval. O‘zbekistonda innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlari

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yil 2019-yilga nisbatan o‘shirish ko‘rsatkic hi
Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi	26811.4	31142.8	27378.6	40451.6	55746.5	+108%
Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari	6603.5	6830	17680.8	19130.6	10616.5	+61%

Ilmiy tadqiqot ishlari hajmi	535208. 9	663152. 8	744693. 2	137971 8	–	2022-yilga nisbatan +158%
Fundamental tadqiqot ishlari hajmi	162804	178052. 6	233194. 6	224896. 6	–	2022-yilga nisbatan +38%
Bajarilgan ilmiy-texnik xizmatlar hajmi	160512. 1	182301. 1	143806	109402. 1	260192. 9	+62%

Manba: Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019 yilda 26811,4 birlik bo‘lgan ko‘rsatkich 2023 yilga kelib 55746,5 birlikka yetgan. Bu esa besh yillik davr ichida 108% o‘shish sur‘atini ko‘rsatmoqda. Innovatsion hajmning yillik o‘rtacha o‘shish sur‘atini quyidagi formula orqali hisoblashimiz mumkin:

$$\bar{r} = \frac{Y_t^{\frac{1}{t}}}{Y_0} - 1$$

Bunda:

\bar{r} - o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati

Y_t - oxirgi davr ko‘rsatkichi (55746,5)

Y_0 - boshlang‘ich davr ko‘rsatkichi (26811,4)

t - davrlar soni (4)[9;11]

$$\bar{r} = \frac{55746,5^{\frac{1}{4}}}{26811,4} - 1 = 0,2 \text{ yoki } 20\%$$

Demak, korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi bo‘yicha o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 20% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich innovatsion faoliyatga e‘tiborning sezilarli darajada oshganligidan dalolat beradi.

Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari dinamikasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2019 yilda 6603,5 birlik bo‘lgan ko‘rsatkich 2023 yilga kelib 10616,5 birlikka yetgan. Bu esa 61% o‘shishni bildiradi, bu esa innovatsion hajmning o‘shish sur‘atidan (108%) ancha past. Bu holat quyidagi xulosa chiqarishga imkon beradi: innovatsion hajm innovatsion xarajatlarga nisbatan tezroq o‘sgan, bu esa innovatsion faoliyatning samaradorligi oshganligini bildiradi.

“Innovatsion samaradorlik koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$K_s = \frac{\text{Innovatsion hajm}}{\text{Innovatsion xarajatlar}}$$

Va bunga asosan:

$$K_{2019} = \frac{26811,4}{6603,5} = 4,06$$

$$K_{2023} = \frac{55746,5}{10616,5} = 5,25$$

Ko‘rinib turibdiki, innovatsion samaradorlik koeffitsienti 2019 yildagi 4,06 dan 2023 yilga kelib 5,25 ga oshgan. Bu esa innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligi oshganligini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari hajmi ham sezilarli darajada o‘sgan. 2019-2022 yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich 535208,9 dan 1379718 ga yetgan, ya’ni 158% ga oshgan. Fundamental tadqiqot ishlari hajmi esa shu davr ichida 38% ga o‘sgan (162804 dan 224896,6 ga).

Keyingi qilinadigan ish, tadqiqot doirasida taqdim etilgan 2-jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekistonda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkiliy tuzilmalar dinamikasini tahlil qilish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda innovatsion ekotizimning tashkiliy asoslarini baholash imkonini beradi.

2-jadval. O‘zbekistonda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkiliy tuzilmalar dinamikasi

Klassifikaror	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yil 2019-yilga nisbatan o‘shish ko‘rsatkichi
Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni	304	254	254	262	289	-5%
Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni	1587	1217	1151	1323	5026	+216%

Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni	195	195	179	181	–	2022-yilga nisbatan -8%
--	-----	-----	-----	-----	---	-------------------------

Manba: Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni 2019-2023 yillar oralig‘ida notekis dinamikaga ega bo‘lgan. 2019 yilda 304 ta tashkilot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2020-2021 yillarda bu ko‘rsatkich 254 taga tushgan, 2022 yilda 262 taga va 2023 yilda 289 taga yetgan. 2019 yilga nisbatan 2023 yildagi ko‘rsatkich 5% ga pasaygan. Yillik o‘zgarish sur‘atlarini hisoblaydigan bo‘lsak +10,3% o‘zgarish bo‘lgan.

Ko‘rinib turibdiki, 2020 yilda sezilarli pasayish kuzatilgan, keyin esa asta-sekin o‘shish tendensiyasi qayd etilgan. Bu dinamikaning zanjirli indekslarini hisoblash orqali ham tahlil qilish mumkin:

$$I_{2020/2019} = 0,836$$

$$I_{2021/2020} = 1,000$$

$$I_{2022/2021} = 1,031$$

$$I_{2023/2022} = 1,103$$

Mazkur ko‘rsatkichlardagi pasayish 2020 yilda yuzag‘a kelgan global pandemiya ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillardagi ijobiy tendensiya esa davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari samaradorligi oshganligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yilda kuzatilgan keskin o‘shish (280%) mamlakatda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilganligi va ularning samaradorligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bunday o‘shish sur‘ati innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etilganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni esa 2019-2022 yillar oralig‘ida deyarli o‘zgarmagan. 2019-2020 yillarda 195 ta tashkilot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2021 yilda bu ko‘rsatkich 179 taga tushgan, 2022 yilda esa 181 taga yetgan. 2022 yilga kelib 2019 yilga nisbatan 8% pasayish kuzatilgan.

Ushbu uch ko‘rsatkichni o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun korrelatsiya koeffitsientini hisoblashimiz mumkin. Misol uchun, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni bilan

innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqamiz. 2019-2022 yillar ma'lumotlari asosida (to'liq davr uchun):

$$\text{Korrelatsiya koeffitsienti}(r) = \frac{\text{Cov}(X; Y)}{\sigma_x \cdot \sigma_y}$$

Bunda:

X - ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni

Y - innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni

Cov(X;Y) - kovariatsiya

σ_x va σ_y - standart og'ishlar[10;12]

Buni hisoblab chiqish uchun ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar sonini X sifatida, Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar sonini Y sifatida olamiz va excel dasturida hisob kitob qilib chiqamiz.

Hisob kitob natijasida:

$$X = \{304, 254, 254, 262\}$$

$$Y = \{1587, 1217, 1151, 1323\}$$

\bar{X}	$X_1 - \bar{X}$	$X_2 - \bar{X}$	$X_3 - \bar{X}$	$X_4 - \bar{X}$
268,5	35,5	-14,5	-14,5	-6,5
\bar{Y}	$Y_1 - \bar{Y}$	$Y_2 - \bar{Y}$	$Y_3 - \bar{Y}$	$Y_4 - \bar{Y}$
1319,5	267,5	-102,5	-168,5	3,5

Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda Kovariatsiya (Cov(X,Y))ni hisoblaymiz.

$$\text{Cov}(X, Y) = \frac{\sum[(X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})]}{n}$$

$$\text{Cov}(X, Y) = \frac{13403}{4} = 3350,75$$

Keyingi qilinadigan ish bu standart og'ishlarni (σ_x va σ_y) hisoblash X uchun standart og'ish(σ_x)ni hisoblab chiqamiz[13;14].

$$\sigma_x = \sqrt{430,75} = 20,76$$

$$\sigma_y = \sqrt{27616,75} = 166,18$$

Hosil bo'lgan natijalardan korrelyatsion koeffitsientni hisoblashimiz mumkin bo'ladi:

$$R = \frac{3350,75}{(20,76 \times 166,18)} = 0,97$$

Korrelatsiya koeffitsienti $r = 0,97$ ni tashkil etadi, bu esa ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni bilan innovatsiyalar

joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Taqribiy hisob-kitoblar natijasida 2019-2022 yillar uchun korrelatsiya koeffitsienti 0,52 ni tashkil etadi, bu esa o'rtacha kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi. 2023 yil ma'lumotlari bilan birgalikda olib qaraydigan bo'lsak, korrelatsiya koeffitsienti yanada yuqoriroq bo'lishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

Tashkiliy tuzilmaviy ko'rsatkichlar tahlili asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirishimiz mumkin. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar sonining pasayishi ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida tashkiliy optimallashtirishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat berishi mumkin. Bu holat ilmiy faoliyat sifatiga e'tibor kuchayganligini ko'rsatadi.

Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar sonining keskin o'sishi ayniqsa 2023 yilda mamlakatda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha choratadbirlar samaradorligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu holat innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot tashkilotlari sonining nisbatan barqaror ekanligi, lekin innovatsiyalarni joriy etuvchi tashkilotlar sonining keskin o'sishi ilmiy-tadqiqot natijalari va ularning amaliy qo'llanilishi o'rtasida samarali bog'lanish yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Innovatsion faoliyatning tashkiliy asoslarini rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot natijalari transferini ta'minlovchi infratuzilmani yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston innovatsion faoliyatning tashkiliy asoslarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli natijalarni qo'lga kiritgan. Ayniqsa, innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar sonining keskin o'sishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi oshganligidan dalolat beradi. Biroq, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni nisbatan barqaror ekanligi innovatsion faoliyatning ilmiy asoslarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] PF-165-son Prezident farmoni – 2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi <https://lex.uz/docs/6102462>

[2] Global innovatsion indeksda O‘zbekistonning o‘rni haqida ma’lumot (PF-165 Farmon matnida qayd etilgan) <https://lex.uz/docs/6102462>

[3] J. Schumpeter, “The Theory of Economic Development” Harvard University Press, Cambridge, 1934.

[4] S. Kaplan and P. Stromberg, “Financial Contracting Theory Meets the Real World: An Empirical Analysis of Venture Capital Contracts,” The Review of Economic Studies, vol. 70, no. 2, pp. 281-315, 2003.

[5] A. Abdullaev, M. Qurbonov, and S. Jumaniyozov, “O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish: muammolar va istiqbollar” Fan va texnologiyalar, vol. 3, pp. 45-52, 2021.

[6] S. Yusupov, “Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikchilikning roli” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, vol. 4, pp. 24-31, 2020.

[7] B. Hodiev, “Innovatsion faoliyatni soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirish yo‘llari” Moliya, vol. 2, pp. 15-22, 2021.

[8] M. Mazzucato, “The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths” Anthem Press, London, 2013.

[9] B. Berkinov, “O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning institutsional asoslarini takomillashtirish” Iqtisod va moliya, vol. 5, pp. 32-40, 2020.

[10] G. Xudoyorova, “Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari” Biznes-ekspert, vol. 7, pp. 28-35, 2021.

[11] N. Akbarova, “Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari” O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, vol. 3, pp. 45-52, 2022.

[12] F. Qodirov, “Tijorat banklarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini oshirish masalalari” Bank axborotnomasi, vol. 6, pp. 18-25, 2021.

[13] A. Blinov, “Commercial Banks in Financing Innovation Projects: Current State and Development Perspectives” Journal of Finance and Banking, vol. 24, no. 3, pp. 367-378, 2020.

[14] E. Mollick, “The dynamics of crowdfunding: An exploratory study” Journal of Business Venturing, vol. 29, no. 1, pp. 1-16, 2014.

[15] D. Ismailov, “Raqamli texnologiyalar asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish” Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar, vol. 2, pp. 45-52, 2022.

RUKOLA O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYA

Daminov Samandar Iskandar o'g'li

Daminovsamandar017@gmail.com

Nazarov Sirojiddin G'ani o'g'li

Sirojiddinnazarov612@gmail.com

Maxmadaliyeva Muazzam Mansurovna

Maxmadaliyevamuazzam1221@gmail.com

Izzatova Risolat Bahriddin qizi

Risolatizzatova4@gmail.com

Abdullayev To'lqin Uchqun o'g'li

Abdullayevtulqin16@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada rukola (*Eruca sativa*) o'simligining dorivor xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda inson salomatligiga ijobiy ta'siri yoritilgan. Rukola tarkibida A, C, K vitaminlari, temir, kaltsiy, foliy kislotasi kabi foydali moddalarning mavjudligi uni nafaqat oziq-ovqat sifatida, balki tabobatda ham keng qo'llash imkonini beradi. Maqolada rukolaning immunitetni kuchaytirish, ovqat hazm qilishni yaxshilash, yallig'lanishga qarshi va antioksidant xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, rukolani xalq tabobatida ishlatish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rukola, dorivor o'simlik, *Eruca sativa*, antioksidant, xalq tabobati, vitaminlar, ovqat hazm qilish

Аннотация: В данной статье рассматриваются лекарственные свойства растения руккола (*Eruca sativa*), его химический состав и положительное влияние на здоровье человека. Содержит витамины А, С, К, железо, кальций и фолиевую кислоту, руккола используется не только как пищевой продукт, но и в народной медицине. В статье проанализированы такие свойства, как укрепление иммунной

системы, улучшение пищеварения, противовоспалительное и антиоксидантное действие на основе научных источников. Также представлены способы применения рукколы в народной медицине.

Ключевые слова: руккола, лекарственное растение, *Eruca sativa*, антиоксидант, народная медицина, витамины, пищеварение

Abstract: This article explores the medicinal properties of the arugula plant (*Eruca sativa*), its chemical composition, and its positive effects on human health. Rich in vitamins A, C, and K, as well as iron, calcium, and folic acid, arugula is used not only as a food product but also in traditional medicine. The article analyzes its immune-boosting, digestive-improving, anti-inflammatory, and antioxidant properties based on scientific sources. It also provides information on traditional methods of using arugula for therapeutic purposes.

Keywords: arugula, medicinal plant, *Eruca sativa*, antioxidant, traditional medicine, vitamins, digestion

Kirish: Tabiiy o'simliklarning inson salomatligini saqlash va turli kasalliklarni davolashdagi o'rni qadim zamonlardan buyon e'tirof etilgan. Hozirgi davrda ham dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, chunki ular kimyoviy dori vositalariga nisbatan xavfsizroq va organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatadi. Shunday o'simliklardan biri bu — rukola (*Eruca sativa*) bo'lib, u karamdoshlar oilasiga mansub, barglari achchiqroq tamga ega bo'lgan sabzavot turidir. Rukola nafaqat oziq-ovqat sanoatida, balki xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda ham muhim o'ringa ega.

Rukola barglari tarkibida A, C, K vitaminlari, temir, kalsiy, magniy, foliy kislotasi hamda turli antioksidant moddalar mavjud bo'lib, ular organizmning immun tizimini mustahkamlash, yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish va hujayralarni erkin radikallardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham rukola sog'lom ovqatlanish tarkibida tobora keng qo'llanilmoqda.

Ushbu maqolada rukola o'simligining biologik faol moddalari, dorivor xususiyatlari, xalq tabobatidagi o'rni va tibbiyotda qo'llanilishi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltiriladi. Maqsad — bu o'simlikning salomatlik uchun foydali jihatlari chuqur tahlil qilish va uni kundalik hayotda to'g'ri qo'llashga e'tibor qaratishdir.

So‘nggi yillarda odamlar orasida sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan e‘tibor ortib, tabiiy va ekologik toza mahsulotlarga talab keskin oshdi. Ayniqsa, sun‘iy qo‘shimchalarsiz, organizmga foydali ta‘sir ko‘rsatadigan dorivor o‘simliklar tibbiyotda va kundalik hayotda keng o‘rin egallamoqda. Bunday o‘simliklar orasida rukola (*Eruca sativa*) alohida e‘tiborga loyiq, chunki u tarkibida turli biologik faol moddalarga ega bo‘lib, salomatlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Rukola nafaqat oziq-ovqat mahsuloti sifatida, balki terapevtik vosita sifatida ham qo‘llanilmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu o‘simlikning antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, hamda immunitetni qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, uni turli fiziologik holatlarda qo‘llash imkoniyatlari hali to‘liq o‘rganilmaganligi bois, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish muhim sanaladi. Mazkur maqola rukola o‘simligining dorivor ahamiyatini ilmiy manbalar asosida yoritish, shuningdek, uni xalq tabobatidagi o‘rnini aniqlashni maqsad qiladi!

Tabiatda o‘simliklarning sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashda alohida o‘rni bor. Ushbu o‘simliklar orasida rukola (*Eruca sativa*) salomatlik uchun foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘simlik sifatida ajralib turadi. Yangi va kengaytirilgan tadqiqotlar rukolaning kimyoviy tarkibida mavjud bo‘lgan moddalarning inson organizmiga bo‘lgan ta‘sirini chuqur o‘rganmoqda. Rukola barglari tarkibida antioksidantlar, vitaminlar va minerallar kabi foydali komponentlar mavjud bo‘lib, ular turli kasalliklarning oldini olish va davolashda yordam beradi.

O‘simliklarning dorivor xususiyatlarini o‘rganish nafaqat ilmiy jihatdan, balki ularning xalq tabobatida qo‘llanilishi orqali ham ahamiyatlidir. Rukola ko‘plab sog‘liqni saqlash sohalarida, xususan, yallig‘lanish, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari va oshqozon-ichak tizimi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda ishlatiladi. Shu sababli, rukolaning dorivor ta‘sirini yanada chuqurroq o‘rganish va uni tibbiyotda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatish dolzarb masala hisoblanadi.

Rukola o‘simligi haqida olib borilgan ilmiy izlanishlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortdi. Tadqiqotchilar rukolaning kimyoviy tarkibi, ozuqaviy qiymati va salomatlikka foydali xususiyatlarini aniqlashga katta e‘tibor qaratmoqda. Shuningdek, rukolani o‘rganishda uning yallig‘lanishga qarshi ta‘siri, xolesterin darajasini pasaytirishdagi roli va erkin radikallarga qarshi kurashishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Biroq, ushbu o‘simlikning xalq tabobatida qo‘llanilishi to‘g‘risida to‘liq ilmiy tahlil mavjud emas, shuning uchun ularning tibbiyotda qo‘llanilish darajasi ham aniq emas.

Maqolaning maqsadi va vazifalari:

Ushbu maqola rukola o'simligining biologik faol moddalarini o'rganishga va uning dorivor xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Maqolaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Rukola o'simligining kimyoviy tarkibining tahlili;
- Uning dorivor ta'sirlarini ilmiy asosda ko'rsatish;
- Xalq tabobatidagi qo'llanilish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Rukolani zamonaviy tibbiyotda qo'llash imkoniyatlarini o'rganish

Rukola o'simligining dorivor xususiyatlari: Rukola (*Eruca sativa*) o'simligi o'zining biologik faol moddalari bilan tibbiyotda katta ahamiyatga ega. Ushbu o'simlik tarkibida mavjud bo'lgan vitaminlar, minerallar va fitokimyoviy moddalarning organizmga bo'lgan ta'siri ilmiy tadqiqotlar bilan isbotlangan. Quyida rukolaning asosiy dorivor xususiyatlari ta'riflanadi:

Immun tizimini mustahkamlash: Rukola tarkibida yuqori miqdorda C vitamini mavjud bo'lib, bu moddalar organizmni yengil shamollash va infeksiyalarga qarshi kurashishda qo'llaniladi. C vitamini immun tizimini mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, o'simlikda mavjud bo'lgan A vitamini va K vitamini ham organizmning himoya mexanizmlarini qo'llab-quvvatlaydi. Rukola, shuningdek, tarkibidagi foliy kislotalari bilan hujayra yangilanishiga yordam beradi va organizmning sog'lom o'sishiga imkon yaratadi.

Yurak-qon tomir tizimi uchun foydali ta'sir: Rukoladagi minerallar va antioksidantlar, ayniqsa, kaltsiy va magniy, yurak va qon tomir tizimining sog'lom ishlashiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rukola xolesterin darajasini pasaytirishga yordam beradi, bu esa yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, rukola antioksidant xususiyatlari tufayli erkin radikallarni zararsizlantiradi, bu esa yurak va qon tomirlarini himoya qiladi.

Yallig'lanishga qarshi ta'sir: Rukola o'simligida yallig'lanishga qarshi moddalarning yuqori miqdori mavjud. O'simlik tarkibida fitokimyoviy moddalar, masalan, glukozinolatlar (glukosinolatlar) mavjud bo'lib, ular organizmdagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi. Ushbu moddalar, ayniqsa, artrit kabi yallig'lanish kasalliklarini boshqarishda samarali bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlar, shuningdek, rukolaning o'pka va ichaklardagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishda ham yordam berishini isbotlagan.

Hazm tizimi uchun foydalari: Rukola oshqozon-ichak tizimi uchun ham foydalidir. O'simlikdagi tolalar hazmni yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga ichak mikrobiyotasi muvozanatini saqlaydi. Rukola tarkibidagi kislotalar va antioksidantlar oshqozon shilliq qavatini himoya qilishga yordam beradi, bu esa oshqozon yaralarining oldini olishda samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, rukola oshqozonning tezroq va samaraliroq ishlashini ta'minlaydi, shu bilan birga ichaklarni tozalashga yordam beradi.

Toksinlarni chiqarish: Rukola organizmdan toksinlarni chiqarish xususiyatiga ega. O'simlikda mavjud bo'lgan fitokimyoviy moddalari toksinlar va zararli moddalarni organizmdan chiqarishga yordam beradi. Bu xususiyat rukolaning detoksifikatsiya jarayonlarini rag'batlantirishga yordam beradi, ayniqsa, o'pka va jigar tizimlarida toksinlarni kamaytirishga yordam beradi.

Xalq tabobatidagi o'rni: Rukola o'simligi uzoq asrlar davomida xalq tabobatida ishlatilgan va ko'plab sog'liqni saqlash maqsadlarida qo'llanilgan. Turli madaniyatlar va hududlarda rukola o'simligi haqida turli an'anaviy qo'llanmalar mavjud bo'lib, u inson salomatligini saqlashda foydali vosita sifatida qadrlanadi. Rukola o'simligi tarkibida mavjud bo'lgan moddalarning dorivor xususiyatlari xalq tabobatida keng qo'llanilgan, ayniqsa, quyidagi holatlarda:

Oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini davolash: Rukola, ayniqsa, oshqozon-ichak tizimining sog'lom faoliyatini qo'llab-quvvatlashda keng tarqalgan xalq tabobat vositasidir. O'simlik tarkibidagi tolalar hazm tizimini yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga oshqozon va ichaklarda yallig'lanishni kamaytiradi. Rukola ko'pincha oshqozon yarasi, ichak tizimi kasalliklari, shuningdek, ich qotish va oshqozon achishi kabi muammolarning oldini olishda tavsiya qilinadi.

Yallig'lanish va og'riqlarni kamaytirish: Rukolaning yallig'lanishga qarshi xususiyatlari ayniqsa, artrit va boshqa yallig'lanishli kasalliklar bilan bog'liq og'riqlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xalq tabobatida rukola barglari yoki ularning siqilmasi yallig'lanishni pasaytirish va og'riqlarni kamaytirish uchun ishlatilgan. Ayniqsa, qo'llanmalar shuni ko'rsatadiki, rukolaning yallig'lanishga qarshi ta'siri va og'riqni kamaytirishga yordam beruvchi xususiyatlari ko'p joylarda keng qo'llaniladi.

Detoksifikatsiya va toksinlardan tozalash: Xalq tabobatida rukola o'simligi organizmdan toksinlarni chiqarish va detoksifikatsiya qilishda ham qo'llanilgan. Rukolaning o'tkazuvchi va toksinlarni chiqaruvchi xususiyatlari uning organizmni tozalashda qanday samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Ushbu xususiyat, ayniqsa, jigar va buyraklarni tozalashda, shuningdek, umumiy salomatlikni yaxshilashda muhim hisoblanadi.

Dala va teri kasalliklarini davolash: Rukola o'simligi qishloq hududlarida dala va teri kasalliklarini davolashda ham ishlatilgan. O'simlikning barglari va ildizlaridan siqilmalar, shuningdek, ularni qaynatib chiqarilgan suyuqliklar teri kasalliklarini, masalan, toshmalar, ekzema, va boshqa yallig'lanishlar uchun qo'llanilgan. Shuningdek, rukola terining qayta tiklanish jarayonlarini rag'batlantiradi, bu esa yaralarni tezda tuzatishda yordam beradi.

Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash: Rukola o'simligi, shuningdek, kuchli energiya beruvchi va salomatlikni saqlashda foydalanuvchi o'simlik sifatida qadrlanadi. Xalq tabobatida u ko'pincha salomatlikni qo'llab-quvvatlash uchun foydalanilgan, chunki uning tarkibida mavjud bo'lgan vitaminlar va minerallar, shuningdek, boshqa biologik faol moddalar organizmning umumiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Rukola, shu bilan birga, uzoq umr ko'rish va organizmni ko'proq energiya bilan ta'minlash uchun foydali vosita sifatida qaraladi.

Xulosa. Rukola (*Eruca sativa*) o'simligi nafaqat ozuqaviy qiymatiga, balki dorivor xususiyatlariga ham ega. Uning tarkibidagi vitaminlar, minerallar, antioksidantlar va fitokimyoviy moddalar turli kasalliklarning oldini olish va davolashda yordam beradi. Ushbu o'simlik, ayniqsa, yurak-qon tomir tizimi, oshqozon-ichak kasalliklari, yallig'lanish jarayonlari va toksinlarni chiqarishda samarali vosita sifatida qadrlanadi.

Xalq tabobatida rukola uzoq asrlar davomida sog'liqni saqlashda qo'llanilib kelgan va uning turli dorivor xususiyatlari ko'plab an'anaviy tibbiyotda keng tarqalgan. Rukolaning detoksifikatsiya qilish, oshqozon-ichak tizimini yaxshilash, immun tizimini mustahkamlash kabi foydalari hamda yallig'lanishga qarshi ta'siri uning xalq tabobatidagi o'rnini yanada mustahkamlashga yordam berdi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar rukolaning dorivor xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga olib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlar, rukolaning tibbiyotda, ayniqsa, profilaktika va kasalliklarni davolashda qanday qo'llanilishini yanada aniqroq

tushunishga imkon beradi. Natijada, rukola o'simligi salomatlikni qo'llab-quvvatlashda samarali tabiiy vosita sifatida o'zining ahamiyatini oshiradi.

Shunday qilib, rukola o'simligining dorivor xususiyatlari ham ilmiy, ham xalq tabobati nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Kelajakda bu o'simlikning tibbiyotda qo'llanilishini yanada kengaytirish va uning salomatlikka bo'lgan foydalari haqida ko'proq tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasriddinov, A.X. Dorivor o'simliklar. – Toshkent: «O'zbekiston», 2019. – 320 b.
2. Kholmatova, D. va boshq. Farmakognoziya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020. – 280 b.
3. Shukla, Y., & Singh, M. (2007). Cancer preventive properties of ginger: A brief review. *Food and Chemical Toxicology*, 45(5), 683–690.
4. Lucchesi, M.E., et al. (2004). Phytochemical and biological properties of *Eruca sativa*. *Journal of Ethnopharmacology*, 95, 103–109.
5. Martinez, M. D., & Mars, A. I. (2010). Bioactive compounds in leafy vegetables: A focus on rocket salad (*Eruca sativa*). *Phytotherapy Research*, 24(3), 341–348.
6. WebMD. “Arugula: Health Benefits, Nutrition Facts, Uses.” <https://www.webmd.com> (murojat qilingan sana: 2025-yil 8-may).
7. Healthline. “7 Surprising Benefits of Arugula.” <https://www.healthline.com>

**TERMIZ SHAROITIDA ZA'FARON (CROCUS SATIVUS L.)
O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI**

Boynazarova Sayyora Ro'zikulovna

O'rmonchilik, dorivor o'simliklar va manzarali bog'dorchilik kafedrasida katta
o'qituvchisi

Shopulatova Xonzodabonu Baxtiyor qizi

Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Za'faron (*Crocus sativus* L.) o'simligi, asosan, janubiy va sharqiy hududlarda o'sadigan, tibbiyotda va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladigan qimmatbaho dorivor o'simliklardan biridir. Termiz sharoitida za'faronning bioekologiyasi, ya'ni uning o'sishi, rivojlanishi va mahsuldorligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni o'rganish, o'simlikning optimal ekish sharoitlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Termizda za'faron o'simligining tuproq va iqlim sharoitlari, sug'orish rejimi, va kasalliklar bilan kurashish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'simlikning hayotiy sikli, vegetativ va generativ rivojlanish bosqichlari, shuningdek, uning oziq-ovqat sanoati va farmatsevtik sohalarda foydalanish imkoniyatlari ham yoritiladi. Bu tadqiqot Termiz mintaqasida za'faron ekish texnologiyasini takomillashtirish va uning ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Za'faron (*Crocus sativus* L.), bioekologiya, Termiz sharoiti, tuproq va iqlim sharoitlari, sug'orish rejimi, kasalliklar bilan kurashish, vegetativ rivojlanish, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati.

Kirish.

Za'faron (*Crocus sativus* L.) – dunyo bo'ylab o'simliklar dunyosida o'zining noyob tibbiy va oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati bilan ajralib turadigan dorivor o'simliklardan biridir. Asosan subtropik va iqlimi iliq hududlarda yetishtiriladigan bu o'simlik, o'zining gulli qismlaridan olinadigan zarafshon moddalari bilan keng qo'llaniladi. Termiz mintaqasi o'zining iliq iqlimi, qumloq tuproqlari va qish mavsumining nisbatan yumshoqligi bilan za'faron yetishtirish uchun optimal sharoitlar taqdim etadi. Shu bilan birga, za'faronning yuqori sifatli hosil olish uchun aniq

bioekologik sharoitlarga ehtiyoji mavjud. Ushbu maqola Termiz sharoitida za'faronning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni o'rganish, shuningdek, uning samarali ekish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Maqsadimiz, Termizdagi tuproq, iqlim va sug'orish sharoitlari asosida za'faronning bioekologiyasini tahlil qilish va uning samarali yetishtirilishiga doir tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Asosiy qism.

Za'faron (*Crocus sativus* L.) o'simligi, o'zining noyob biologik va tibbiy xususiyatlari bilan juda qadrlanadi. Termiz sharoitida uning o'sishi va rivojlanishi bir qancha ekologik omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar o'simlikning mahsuldorligiga va sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Asosiy e'tibor, ayniqsa, tuproq sharoitlari, iqlim va sug'orish tizimiga qaratiladi.

1. Tuproq sharoitlari:

Za'faron o'simligi yaxshi qurigan, toza, organik moddalarga boy tuproqlarda o'sadi. Termizda tuproq turi asosan qumli va yengil bo'lib, bu o'simlikka yaxshi mos keladi. Shuningdek, tuproq pH darajasi za'faron uchun 6-8 oralig'ida bo'lishi kerak, chunki ortiqcha kislotalilik o'simlikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproqda drenaj tizimi yaxshi bo'lishi zarur, chunki ortiqcha suv yig'ilishi ildizlarning chirishiga olib kelishi mumkin.

2. Iqlim sharoitlari:

Za'faron o'simligi iliq va quruq iqlimni yaxshi ko'radi. Termizning subtropik iqlimi, uning ko'p yillik o'simlik sifatida o'sishi uchun eng qulay sharoitlarni taqdim etadi. Za'faron o'simligi sovuq haroratlardan himoyalaniishi kerak, chunki -10°C dan past haroratlar o'simlikni zararlashi mumkin. Biroq, bu o'simlik issiq va quruq iqlimni yaxshi ko'radi, shuning uchun za'faronni yillar davomida ekish uchun Termiz hududi idealdir.

3. Sug'orish rejimi:

Za'faron o'simligi suvga nisbatan sezgir bo'lib, ortiqcha sug'orish ildiz tizimining chirishiga olib kelishi mumkin. Termizda issiq va quruq sharoitlar mavjud bo'lganligi sababli, za'faronni sug'orish jarayoni ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi zarur. Odatda, o'simliklar eng yaxshi hosilni olish uchun nam tuproq sharoitida yetishtiriladi, lekin

suvsizlanish holatida ham o'sish davom etadi. Shuning uchun sug'orish rejimi o'simlikning ehtiyojlariga mos ravishda rejalashtirilishi kerak.

4. Kasalliklar va zararkunandalar bilan kurashish:

Za'faronni yetishtirishda eng muhim ekologik masalalardan biri o'simlikka zarar etkazadigan kasalliklar va zararkunandalardir. O'simlikda chirish, qora chok, va bakterial kasalliklar uchrashi mumkin. Termiz mintaqasida yuqori namlik va issiq iqlim sharoitlari ba'zi kasalliklarning tarqalishiga olib kelishi mumkin. Za'faronning kasalliklarga chidamliligini oshirish uchun muntazam ravishda profilaktik choralar ko'rish, tabiiy insektitsidlar va fungitsidlar qo'llash tavsiya etiladi.

5. Vegetativ rivojlanish:

Za'faron o'simligi vegetativ rivojlanish bosqichida ildizlarning kengayishi va yangi o'simliklar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda o'simlikning ildizlari va poyasi kuchli rivojlanadi, ular ortiqcha suvni yaxshi qabul qiladi va o'simlikning hayotiy siklini davom ettiradi. Za'faronning o'sish davri qisqa bo'lishi sababli, vegetativ rivojlanish bosqichi ayniqsa, optimal sharoitlarda o'ta tez va samarali bo'ladi.

6. Generativ rivojlanish:

CHPV-4,5 rusumli ta'minlagich-tozalagichda olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasi shuni ko'rsatadiki, mashina yordamida terilgan va quritish-tozalash syexidan o'tgan I-navli paxtani tozalashda tozalagichning tozalash samaradorligi o'rtacha 55 % gacha bo'lgan. Bunda tolaning iflosligi 0,5 (abs)% ga kamaygan. CHPV-4,5 ning tozalash samaradorligi yuqori bo'lishiga qaramasdan ishlab chiqarishga joriy etilmagan. Bunga asosiy sabablardan biri tozalagichda paxtaning keragidan ortiq titilishidan paxta formasining kattalashishi bilan shpagatushlagich 11 ni aylanishidan plankali baraban 10 tomonga paxtani otib berishida paxtaning bir qismi plankali baraban 10 atrofida aylanib qolishi va arrachali barabanlar 4 va 5 ga otib berishdek noxish xolatlar yuzaga kelib, jarayonda paxtaning tiqilishiga olib kelgan. Bundan tashqari keragidan ortiq titilgan paxtani ishchi kameraning kirish qismida to'planishlarni yuzaga kelishiga va ishchi kamera fartugida xom ashyo valigining aylanish tezligini kamayishiga olib kelgan. Buning natijasida jinning ish unumdorligi o'rtacha 20-30% ga kamaygan va bitta arraga 8 kg/arrasoatni tashkil etgan.

CHPV-4,5 rusumli ta'minlagich-tozalagichda yuqorida qayd etilgan kamchiliklar bo'lganligi uchun paxtani arrali jingacha mayda va yirik iflosliklardan tozalash kerakligi aniqlangan va paxtani dastlabki ishlash texnologiyasiga tozalash syexi kiritilib, syexga paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash uchun CHX rusumli tozalagichlar joriy etilgan. Lekin CHX rusumli tozalagich paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalamaganligi uchun jinlash jarayonigacha paxtadan mayda iflosliklarni kerakli miqdorda ajratish maqsadida jin ta'minlagichiga oddiy konstruksiyali PD rusumli ta'minlagich-tozalagichlar joriy etilgan.

PD ta'minlagich-tozalagich konstruksiyasiga asosan ta'minlovchi valiklar 1, qoziqli baraban 2, uning ostiga o'rnatilgan 6x50 mm teshik o'lchamiga ega bo'lgan to'rli yuza 3, tarnov 4, orqa qopqoq 5, chiqindi transporter 6 dan iborat (2-rasm).

Ta'minlovchi valiklar 1 dan berilayotgan paxta qoziqli baraban 2 da tezligi o'rtacha 10,5 m/sek bilan baraban 2 ostiga o'rnatilgan to'rli yuza 3 sirtida barabandagi qoziqlar yordamida urub, sudralib xarakatlanishidan mayda iflosliklardan tozalanadi va tarnov 4 orqali ishchi kameraga yuboriladi. Bunday ta'minlagich-tozalagich avval 80 arrali 3XDD, keyin 86 arrali 3XDDM rusumli arrali jinlarda qo'llanilgan [6].

1970 yilning oxiriga kelib, ta'minlagich takomillashtirilgan va 130 arrali jinning ishlab chiqarishga joriy etilishida avval DP-130 rusumli jinda, so'ngra 4DP-130, 5DP-130 va DPZ-180 rusumli arrali jinlarda qo'llanilgan [7]. Ta'minlagichda bir dona qoziqli baraban va to'rli yuza bo'lib, baraban va to'rli yuza konstruksiyasining kamchiligi oqibatida paxtaga kerakli darajada ta'sir etilmaganligidan paxta kerakli miqdorda titilib, yoyilmagan. Natijada ta'minlagichdan mayda iflosliklar samarali ajralmaganligi tufayli tozalash samaradorligi kam bo'lib, o'rtacha 10 % dan oshmagan. Bundan tashqari ta'minlagich-tozalagichdan jin ishchi kamerasiga paxta kerakli miqdorda yoyilmasdan berilgan. Natijada jin ishchi kamerasidagi xomashyo valigida tiqilishlar yuzaga kelib, jinni tez-tez tiqilishiga olib kelgan. Oqibatda jin ish unumdorligi pasayib, yuqori va past navli paxtalarni jinlashda bitta arraga o'rtacha 5-9 kg/soatni tashkil etgan [6].




2-rasm. Jinning PD rusumli ta'minlagich- tozalagichi sxemasi

1-ta'minlovchi valiklar; 2-qoziqli baraban; 3-to'rli yuza; 4-tarnov; 5-orqa qopqoq; 6-chiqindi transporter

Tozalash samaradorligi past bo'lishi va jin tarnovida tozalangan paxtaning ifloslik darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda amaldagi arrali jinlarda bunday konstruksiyali ta'minlagich-tozalagichlar ishlatilmoqda.

5DP-130 rusumli arrali jin konstruksiyasiga asosan uni ta'minlovchi-tozalovchi sistemasi ta'minlovchi valiklar 1, qoziqli baraban 2, to'rli yuza 3, iflosliklar shnegi 4, tarnov 5 va magnit 6 dan iborat (3, 4-rasmlar).




3-rasm. 5DP-130 rusumli arrali jinning sxemasi

1-ta'minlovchi valiklar; 2-qoziqli baraban; 3-to'rli yuza; 4-chiqindi shnegi; 5-tarnov; 6-magnit; 7-zev; 8-fartuk; 9-chigit tarog'i; 10-konsol kolosnigi; 11-arrali silindr; 12-kolosniklar, 13-ulyuk shnegi; 14-havo kamerasi.

Arrali jin ta'minlagich-tozalagichini samaradorligini o'rgnish uchun ishlab chiqarishda tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot ishlari Toshkent viloyati "APK Boka" MSHJ paxta tozalash korxonasiidagi 5DP-130 rusumli arrali jin ta'minlagich-tozalagichida o'tkazildi.

Tadqiqot ishlari davrida paxta, tola va chigitdan namunalar olinib, korxonada laboratoriyasida taxlil qilindi. Tajriba ishlari S-6524 seleksiyali paxtaning I nav va III nav 2-sinfida olib borildi. Bunda texnologiyaga berilayotgan g'aramdagi paxtaning namligi navlar bo'yicha o'rtacha 10,8% va 13,6%, iflosligi o'rtacha 9,6% va 11,8% ni tashkil etdi [8, 9].




**4-rasm. 5DP-130 rusumli
arrali jin ta'minlagich-
tozalagichining sxemasi**

1-ta'minlovchi valiklar, 2-
qoziqli baraban, 3-to'rli yuza, 4-
chiqindi shnegi,
5-tarnov; 6-magnit

Avval tadqiqot ishlari S-6524 seleksiyali paxtani I nav 2-sinfida o'tkazildi. Bunda 2SB-10 rusumli quritish barabanidan keyingi paxtani namligi o'rtacha 8,8% ni, iflosligi o'rtacha 8,9% ni, UXK agregatidan keyingi namligi 7,7% ni, iflosligi 2,4 % ni tashkil qildi. UXK agregatidan keyin tozalangan paxta texnologiyadagi SS-15A rusumli separator yordamida havo bilan so'rib olinib, jin shaxtasi orqali ta'minlagichga berilishida paxtaning namligi o'rtacha 7,5% ni, iflosligi o'rtacha 2,33% ni tashkil etdi. Ushbu paxta jin ta'minlagich-tozalagichida tozalanganda tozalagichdan keyingi paxtaning iflosligi o'rtacha 2,1% ni tashkil etdi. Bunda ta'minlagich-tozalagichning tozalash samaradorligi o'rtacha 9,9% ga teng bo'lib, I navli paxtani tozalashda pasportidagi tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 5,1 (abs)% ga kam ekanligini ko'rsatdi. Paxtani jinlashda jinning ish unumdorligi xronometraj usulida aniqlandi. Bunda ishlab chiqarilgan tola tortib olindi va jinning soat bay ish unumdorligi aniqlanganda ish unumdorligi bitta arraga o'rtacha 10,0 kg/arrasoatni, mashinaga 1300 kg/soatni tashkil etdi. Paxtani jinlashda ishlab chiqarilgan chigitning tukdorligi o'rtacha 10,5% ga, shikastlanishi o'rtacha 3,2% ga teng bo'ldi [10].

Boshlang'ich namligi o'rtacha 13,6% ni, iflosligi o'rtacha 11,8% ni tashkil etgan S-6524 seleksiyali III nav 2-sinflil paxtani quritishda barabandan keyingi namligi 10,7% ni, iflosligi 10,6% ni, UXK agregatidan keyingi namligi 9,6% ni, iflosligi 2,8% ni tashkil qildi. Ushbu paxta 5DP-130 rusumli jin tepasidagi SS-15A rusumli separator yordamida havo bilan co'rib olinib, jin shaxtasi orqali ta'minlagich-tozalagichga berilishida paxtaning namligi o'rtacha 10,4% ni, iflosligi o'rtacha 2,54% ni tashkil etdi. Ushbu paxta jin ta'minlagich-tozalagichida tozalanganda tozalangan paxtaning iflosligi o'rtacha 2,25% ga teng bo'ldi (5-rasm). Bunda tozalagichni tozalash

samaradorligi o'rtacha 11,4% ga teng bo'lib, texnik xarakteristikasidagi tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 8,7 (abs)% ga kam ekanligini ko'rsatdi. Paxtani jinlashda jinning ish unumdorligi bitta arraga o'rtacha 8,9 kg/arrasoatni, mashinaga 1157 kg/soatni tashkil etdi. Paxtani jinlashda ishlab chiqarilgan chigitning tukdorligi o'rtacha 11,6% ga, shikastlanishi o'rtacha 3,46% ga teng bo'ldi [11]. Jindan keyin toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o'rtacha 4,21 % ni tashkil etdi.



5-rasm. Yuqori va past navli paxtani jin ta'minlagich-tozalagichida tozalashda, tozalagichni tozalash samaradorligi, tozalangan paxtaning sifati

1-tozalash samaradorligi, 2-tozalangan paxtani iflosligi.

Tadqiqot ishlari davrida ta'minlagich-tozalagichdan jin ishchi kamerasiga paxtani bir tekis yoyilmasdan tarnov yuzasining ba'zi joylarda to'p-to'p holatida berilishi kuzatildi. Buning natijasida jin ishchi kamerasidagi xomashyo valigini tezligi kamayib, tiqilishlar yuzaga keldi. Bu holat ayniqsa past navli paxtani ta'minlagich-tozalagichda tozalanishida va jin ishchi kamerasiga berilishida ko'p sodir bo'ldi. Bundan tashqari paxtani to'qli yuza sirtida xarakatlanishida paxtadan mayda iflosliklarni yetarli darajada ajralmasligidan ta'minlagich-tozalagichning tozalash samaradorligi past ekanligi o'rganildi. Bunga asosiy sabablardan biri tozalagichdagi to'qli yuza konstruksiyasining kamchiligi bo'lib, yuzadagi teshikning kerakli o'lchamda emasligidan barabandagi qoziqlarni paxta oqimini to'qli yuza sirtiga urub, sudrab tozalashda teshikdan mayda iflosliklarni ajralishiga ulgura olmayotganligidir. Bundan tashqari to'qli yuza sirtining silliqligidan sirtning qoziqlar bilan paxta oqimiga o'zaro ta'sirida paxtani kerakli miqdorda titilib, yoyilmasligiga olib keldi. Kerakli miqdorda paxtani yoyilmasdan ishchi kameraga berilishi kameradagi xomashyo valigi

tezligini kamaytirib, jinni tez-tez tiqilishiga olib keldi va jin ish unumdorligini kamayishiga sabab bo'lishi kuzatildi. Natijada jinning ish unumdorligi I va III nav 2-sinflni paxtani jinlashda o'rtacha 1300 kg/soatga va 1157 kg/soatga teng bo'lib, pasportdagi ish unumdorlikka qaraganda navlar bo'yicha o'rtacha 25,2% ga va 33,1% ga kam ekanligini ko'rsatdi [12].

Xulosa. 5DP-130 rusumli arrali jin ta'minlagichning samaradorligi bo'yicha ishlab chiqarishda olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasi S-6524 seleksiyali yuqori va past navli paxtani tozalashda tozalash samaradorligi navlar bo'yicha o'rtacha 9,9% va 11,4% ga teng bo'lib, jin pasportdagi ta'minlagich-tozalagich tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 5,1 (abs)% ga va 8,7 (abs)% kam ekanligini ko'rsatdi. Bunga asosiy sabablardan biri tozalagichdagi to'rtli yuza konstruksiyasining kamchiligi bo'lib, yuzadagi teshikning kerakli o'lchamda emasligidan barabandagi qoziqlarni paxta oqimini to'rtli yuza sirtiga urub, sudrab tozalashda teshikdan mayda iflosliklarni ajralishiga ulgura olmayotganligidir. Bundan tashqari to'rtli yuza sirtining silliqligidan sirtning qoziqlar bilan paxta oqimiga o'zaro ta'sirida paxtani kerakli miqdorda titilib, yoyilmasligiga olib kelmoqda. Kerakli miqdorda paxtani yoyilmasdan ishchi kameraga berilishi jinning tez-tez tiqilishiga olib kelib, jin ish unumdorligini kamayishiga sabab bo'lishi kuzatildi. Natijada jinning ish unumdorligi yuqori va past navli paxtani jinlashda o'z navbatida o'rtacha 1300 kg/soat va 1157 kg/soat ga teng bo'lib, pasportdagi ish unumdorlikka qaraganda navlar bo'yicha o'rtacha 25,2% ga va 33,1% ga kam ekanligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan tadqiqot ishlari jin ta'minlagich-tozalagichni tozalash samaradorligini va jinning ish unumdorligini oshirish, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatini yaxshilash uchun tozalash jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy ishchi qism bo'lgan tozalagichdagi to'rtli yuzani takomillashtirish kerakligi aniqlandi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. O'zDst 592-2016. Paxtaning iflosligini aniqlash usuli. Toshkent, 2008, 12 b.
- [2]. O'zDst 597:2016. Paxtani texnik chigiti. Chigitdagi nuqsonlar massaviy ulushini aniqlash usullari. Toshkent, 2011.- 16 b.
- [3]. O'zDst 604:2016. Paxta tolasi. Nuqsonlar va iflos aralashmalar massaviy ulushini aniqlash usullari. Toshkent, 2016.- 19 b.
- [4]. *Sulaymonov R.Sh., Omonov Z.J., Dusiyorov J.J.* Arrali jin ta'minlagich-tozalagichini samaradorligi bo'yicha izlanishlar. O'zbekiston kompozitsion materiallar ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali. №4, Toshkent. 2023. 187-190 b.

- [5]. *Sulaymonov R.Sh., Omonov Z.J., Ismatov M.N.* Paxtani mayda iflosliklardan tozalashning innovasion texnologiyasi. Innovasion texnika va texnologiyalarning qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat tarmog‘idagi muammo va istiqbollari // IV Xalqaro ilmiy-texnik anjuman to‘plami. –Toshkent. ToshDTU, 2024. -482 b.
- [6]. *Sulaymonov R.Sh., Omonov Z.J., Ismatov M.N., O‘ngboyev A.M., Saytov U.A.* The effectiveness of the cotton cleaning system on foreign saw gins. AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and Architecture Volume 2, Issue 6, 2024 ISSN (E): 2993-2637 www.grnjournal.us
- [7]. *Sulaymanov R.Sh., Omonov Z.J., Ismatov M.N., Rayimqulov O.Q., Saytov U.A.* Study of the process of cleaning machine-harvested cotton from small impurities in saw gins. The multidisciplinary journal of science and technology. Vol. 4 Issue 6 | ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024 www.mjstjournal.com
- [8]. *Sulaymanov R.Sh., Omonov Z.J.* Mashinada terilgan paxta tolasi sifatini oshirish. Mashinasozlikda materialshunoslik, payvandlash ishlab chiqarish, materiallar olish va ishlov berishning innovatsion texnologiyalarining dolzarb muammolari-2024 // Xalqaro ilmiy-texnik anjumani materiallari to‘plami. Toshkent. ToshDTU, 16-17 oktyabr 2024.604 b.
- [9]. *Sulaymanov R.Sh., Omonov Z.J.* Xorijiy arrali jinlar ta‘minlagichlarini samaradorligi. Mashinasozlikda fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi: tendensiyalar, muammolar va yechimlar. // Xalqaro miqyosdagi ilmiy va ilmiy texnik konferensiya materiallari to‘plami.-Toshkent. ToshDTU, 7-8 noyabr 2024.
- [10]. *Sulaymanov R., Omonov Z., Meliboyev Y., Xasanov O., Ma‘murjonov D.* Resaerch on the efficiency of a saw gin supplier-cleaner. AIP Conference Proceedings. 3244, 060003 (2024). <https://doi.org/10.1063/5.0242030>
- [11]. *Sulaymonov R. Sh., Omonov Z.J., Yunusova M.Y. Dusiyorov J.J.* Mashinada terilgan paxtani arrali jinlarda mayda iflosliklardan tozalash jarayonini o‘rganish. Development of science. Ilmiy jurnal. 2025/3 volume 1. ISSN 3030-3907. www.devos.uz
- [12]. *Sulaymonov R.Sh., Irgashev B.A., Omonov Z.J.* Effective cleaning of cotton in a saw gin. Technical science and innovation №1/2025 ISSN: 2181-0400 E-ISSN: 2181-1180 <https://btstu.researchcommons.org/journal>
- [13]. *Omonov Z.J., Yunusova M.U., Xurramov D.X.* Исследование влияния чистящего средства на эффективность очистки и эффективность джина.

The multidisciplinary journal of science and technology Vol. 5 Issue 4 | ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024 <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/3291>

- [14]. *Omonov Z.J.* Effective cleaning and ginning of low-grade cotton in a saw gin. International conference on advance science and technology, Volume 02, Issue 022025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15421035>



**SURUNKALI GEPATIT VA JIGAR SIRROZI ETIOLOGIYASI, KLINIKASI,
KECHISHI, DAVOSI.**

Mirazimova Iroda Bahodirovna.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Raxmonova Sayyora Normuradovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Karimova Nigora Xakimovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Usmonova Dilfuza Muhiddinjonovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Anatosiya: Ushbu maqolada “Surunkali gepatit va jigar sirrozi etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davosi haqida ma’lumotlar berilgan. Jigar organizmning bosh laboratoriyasi deb ataladi. Bu muhim organ qorin bo’shlig’ida, o’ng qovurg’alar ostida joylashgan. Massasi 1,5 dan 2 kg gacha bo’lgan jigar pay apparati va qorin ichki bosimi yordamida doimiy vaziyatini saqlab turadi. U diafragmada (orqadan va yuqoridan), ichaklarga, o’ng buyrakka (pastdan), oldingi qorin devoriga (oldindan) tegib turadi. Jigarda ikkita asosiy bo’lak: o’ng (katta) va chap (kichik) bo’lak farq qilinadi. Bu bo’laklar orasida o’yiq bo’lib, bu yerda o’t pufagi — o’t suyuqligi turadigan organ joylashgan. O’t pufagi tanasi o’n ikki barmoq ichakka yopishib turadi. Unga 50 ml gacha (normada) sig’adi, uzunligi — 10 sm, eni — 2—4 sm, qopcha shaklida. Jigarning asosiy struktura birligi gepatotsit—jigar hujayrasi hisoblanadi. Gepatotsitlar jigar bo’laklarini hosil qiladi, bo’lakchalar yuqorida eslatib o’tilgan bo’laklarga gruppalanadi. Jigar bo’lakchalari va bo’laklari orasida biriktiruvchi to’qima va makrofaqar sistemasi hujayralari (retikulo-endotelial sistema) bo’ladi. Biriktiruvchi to’qima butun organ orqali o’tib, gepatotsitlarni go’yo jipslashtirib turadi. Gepatotsitlarda muhim hazm sekreti—o’t ishlanib, u gepatotsitlar orasida bo’ladigan o’t yo’llarini hosil qiladigan o’t kapillarlariga tushadi. Jigardan chiqayotganda ular umumiy jigar

yo'liga quyiladi. Jigarning qon ta'minoti darvoza vena bilan birga jigarga jigar darvozasi soha- sida kiradigan jigar arteriyasi orqali amalga oshiriladi. Darvoza venasi orqali jigarga venoz qon tushadi, darvoza vena jigar bo'lakchalari va bo'lakcha ichida joylashgan jigar venalari kapillarlarini to'rt o'rtasida mayda venalar to'rini hosil qiladi. Qon kapillarlardan jigar venalari orqali pastki kavak venaga tushadi. Jigarning organizm hayot faoliyatdagi ahamiyati benihoya katta. Odam organizmiga ovqat bilan tushadigan oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar hazm apparatida singiydi va qon oqimi bilan jigarga boradi. Bu yerda aytib o'tilgan moddalarni turli organlar va sistemalar osonlikcha o'zlashtiradigan mahsulotlarga aylantirib beradigan ximiyaviy reaksiyalar sodir bo'ladi. Masalan, uglevodlar jigarda glikogenga aylanadi, u zarurat bo'lganda jigardan qonga glukoza ko'rinishida tushadi. Jigarning oqsil almashinuvida roli shundan iboratki, u organizm uchun zarur albumin, I faktor (fibrinogen) yoki protrombin hosil bo'lishida qatnashadi. Jigar va o't xaltaning vazifalari va surunkali gepatit va sirroz kasalligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Surunkali gepatit, o't pufagi, xolesistit, safro, sekretiya, jigar sirrozi, gepatosid hujayralar.

Kirish: Ushbu maqolada biz sizni: "Surunkali gepatit va jigar sirrozi" kasallilari belgilari davosi bilan tanishtirib o'tamiz

. Xronik (surunkali) gepatit—jigar parenximasi, uning mezinximasi (stromasi) va tomirlarning xronik zararlanishi bo'lib, morfologik o'zgarishlari jihatidan, klinik manzarasi, rivojlanish xususiyatlari bo'yicha ham g'oyat turli-tuman kasalliklar guruhidir. Bu guruhga turli morfologik formalari: diffuz va o'choqli, asosan, gepatotsellular va mezenximal, yallig'li va distrofik (degenerativ) formalari kiritilgan. Xronik gepatit—jigarning keng tarqalgan, hamisha aniqlanavermaydigan va ro'yxatga oli- navermaydigan xronik kasallik. U o'tkir virusli gepatit bilan bevosita aloqador bo'lgani va aksariyat sirrozga aylanmay, ko'p yil kechishi hatto sog'ayib ketish mumkinligi jihatidan katta ahamiyatga ega. Standartlangan nomenklatura va xalqaro mezonlarga binoan xronik gepatit—jigarda kamida 6 oy davom etadigan yallig'lanish jarayoni bo'lib, u jigar sirroziga aylanishi mumkin.

Jigar sirrozi — surunkali jigar xastaligi bo'lib, surunkali gepatit kasalligining og'ir asorati hisoblanadi. Bunda morfologik jihatdan jigarning bujmayib qolishi va faoliyatining keskin buzilishi, jigar hujayralari — gepatotsitlarning halok bo'lishi kuzatiladi.

Jigar sirrozining *kelib chiqishida* ko'pgina omillar sabab bo'ladi. Bu sabablar gepatotsitlarning shikastlanishiga va ularni o'limga olib keladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, bu jarayon asta-sekin rivojlanib borishi yoki qaytalanib turishi mumkin.

Kasallikning kelib chiqishida jigarin g viruslar ta'sirida shikastlanishi katta ahamiyatga ega. Virusli gepatit B dan keyin 3—


5% hollarda surunkali aktiv gepatit rivojlanadi va keyinchalik ulardan 40—60% i jigar sirroziga o'tadi. Bu esa surunkali aktiv gepatit bilan og'rikan bemorlarning 50—55% ini tashkil qiladi. Virusli

gepatitning gepatit C formasida surunkali gepatit 60—70% kuzatiladi, 20% i jigar sirroziga o'tadi. Gepatit B ga delta virusi qo'shilishi (gepatit D) jigar sirrozini barvaqt rivojlantiradi. Kam hollarda jigar sirrozi surunkali, asta-sekin kechadigan gepatitdan keyin kelib chiqadi va 5 yil mobaynida 0,8—1,0% bemorlarda rivojlanadi.

Dunyo bo'yicha o'tkir virusli gepatit bilan bir yilda 2 million odam kasal bo'ladi, shundan 1% qismigina kasallikning surunkali formasiga o'tadi. Va keyinchalik jigar sirrozi rivojlanadi.

Jigar sirrozi kelib chiqishida dorilarning ham ta'siri katta. Hozirgi vaqtda 200 dan ko'proq jigarni shikastlantiruvchi dori birikmalari ma'lum. Dorilarni ko'p vaqt yoki katta dozada qabul qilinganda ular jigar strukturasi va funksiyasiga ta'sir qiladi (A.F.Blyuger, 1975). Bu kasallik spirtli ichimliklarni iiste'mol qilish natijasida ham kelib chiqadi. Hayvonlarda eksperiment qilib ko'rilganda ko'p vaqt spirtli ichimliklardan zaharlanish, sifatli ovqatlanishiga qaramasdan, jigarda ferment hosil qilish jarayonini buzadi va gepatotsitlarning distrofik o'zgarishiga olib kelishi aniqlangan.

Alimentar sabablar — ovqat ratsionida oqsillar va vitaminlarning (ayniqsa, vitamin B₁, B₆, folat kislota) yetishmovchiligi jigar sirrozini keltirib chiqaradi. Ko'p hollarda ichki sabablarga ko'ra oshqozon-ichak yo'llaridan oqsil va vitaminlarning qonga so'rilishi buziladi va natijada oqsil, vitamin tanqisligi vujudga keladi. Bu esa jigar sirrozi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tropik iqlimga xos bo'lgan mamlakatlarda parazitlar ta'sirida jigarning surunkali shikastlanishi ham keyinchalik jigar sirroziga olib keladi. Biliar jigar sirrozi hujayralarda zardobning yig'ilib qolishi yoki jigardan tashqari o't yo'llarida zardobning butkul o'tmay qolishida (xolestaz) rivojlanadi. Xolestaz sabablari surunkali xolangit, jigarning ichki o't yo'llari va jigardan tashqaridagi o't yo'llari shaklining o'zgarishi va bekilib qolishidir (birlamchi biliar sirroz). Bundan tashqari, o't yo'llarining boshqa sabablar, o'smalar ta'sirida siqilishi, ko'p vaqt o't toshlari va gelmintlar bilan bekilib qolishi ikkilamchi



biliar sirrozni keltirib chiqaradi. Modda almashinuvining buzilishi va endokrin omillar ham jigar sirrozini keltirib chiqarishi mumkin (tireotoksikoz, qandli diabet va b.).

Materiallar va usullar:

Tadqiqotlar metodikasi: Zamonaviy ilmiy maqolalar, kasallik holatlari va zamonaviy tadqiqot ishlari tahlil qilindi. "Surunkali gepatit va jigar sirrozi etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davosi" mavzusidagi so'ngi innovasion davo usullari haqidagi oxirgi yillarda chop etilgan ilmiy manbalar o'rganildi.

Nazariy asos: Surunkali aktiv gepatitda har xil darajada ifodalangan astenovegetativ, dispeptik, sitolitik, mezenximal-yallig'lanish, xolestatik sindromlar rivojlanadi. Surunkali aktiv gepatit sabablari ichida eng ko'p tarqalgani o'tkir virusli gepatitdir. Kasallik qo'ziganda bemorlar o'ng qovurg'a ostida og'irlik va doimiy simillaydigan og'riq, madorsizlik, tez charchash, ko'ngil aynishi, ishtaha pasayganligi, ichkilikning ko'tara olmasligi, ichak faoliyati buzilganligidan shikoyat qiladi. Kasallik qo'zigan davrda terida sariqlik, qichishish, harorat ko'tarilishi, bo'g'imlarda va muskullarda og'riq paydo bo'ladi.

Paypaslab ko'rilganda jigar kattalashganligi, qattiqlashganligi, og'riq borligi aniqlanadi. Jigar pastki qirradi o'tkirlashadi, ba'zi bemorlarda taloq kattalashadi.

Surunkali persist gepatitning klinik belgilari kam va juda yaqqol bo'lmaydi. Bemorlarda kam quvvatlik, charchash, ko'ngil aynish, jig'ildon qaynashi, o'ng qovurg'aning tagida og'irlik va og'riq paydo bo'ladi. Obyektiv tekshirilganda teri sarg'ayganligi, teri o'zgarishlari, harorat ko'tarilishi deyarli uchramaydi. Jigar paypaslanganda biroz kattalashganligi va qattiqroq bo'lib qolganligi aniqlanadi. Remissiya vaqtida qonda o'zgarishlar bo'lmaydi. Kasallikning qo'zish davrida aminotransferazlarning faolligi qisman oshishi, albuminlarning biroz kamayishi va globulinlarning oshishi bilan namoyon bo'ladigan giperproteinemiya bemorlarning yarmida kuzatiladi. Surunkali xolestatik gepatit jigar ichidagi o't yo'llarida o't yig'ilib qolishi (xolestaz) sababli rivojlanadigan kasallikdir.

Kasallikni qo'zish davrida bemorlarda terida qichishish, sarg'ayish, keyinchalik ichakda yog'da eriydigan vitaminlar so'rilishi buzilganligi sababli ko'z xiralashishi, milklarda va terida gemorragiya belgilari, artralgiya paydo bo'ladi.

Obyektiv tekshirilganda terida sariqlik, pigmentatsiya, ksantelasmalar, qichish o'rinlari ko'riladi. Jigardan tashqari belgilari (palmar eritma, qon tomir „yulduzchalari“) deyarli uchramaydi. Jigar biroz kattalashadi, qattiqlashadi, pastki qirradi silliq bo'ladi.

Davolaxh quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Spetsifik etiotrop davolash, ya'ni asosiy kasallikni davolash.

2. Patogenetik davolash—gormonal preparatlar—prednizolon, deksametazon va immunologik jarayonlar—antitanalar va autoantitanalar hosil bo'lishini susaytiradigan, yallig'lanish reaksiyalarini, fibroz to'qima hosil bo'lishini kamaytiradigan dorilar.

3. Umuman quvvatlantiradigan va simptomatik vositalar — vitaminlar (B-gr, C), vikasol, glukoza, insulin, zarur bo'lganda yurak dorilari va siydik haydaydigan dorilar, o't oqib chiqishiga yordam beradigan vositalar.

4. Parhez bilan davolash.

5. Dispanser kuzatuvi.

6. Sanatoriya-kurortda davolash.

7. Xirurgik davolash metodlari.

Ayrim hollarda xronik gepatit boshlanishidan uning letal natija bilan tugashiga qadar atiga 1—2 yil va hatto bundan kam fursat o'tsa, boshqa hollarda bir necha o'n yilliklar kerak bo'ladi.

Asoratlari: jigar yetishmovchiligi, burundan, qizilo'ngach, me'da va ichak varikoz venalaridan qon ketishi, tromboz, pnevmoniya, sepsis, oriqlab ketish, jigar sirroziga aylanishi, rakka aylanishi.

Profilaktikaxi. O'tkir gepatit bilan og'rikan bemorlarni o'z vaqtida va jiddiy e'tibor berib davolash zarur. O'tkir gepatit bo'lgan bemorlarni dispanserlash, ularga parhez rejimini o'rgatish, sanitariya-oqartuv va sog'lomlashtirish tadbirlari (toksik va ximiyaviy moddalar, o'simlik zaharlari, zamburug'lar xususida).

Har xil dorilar va zaharli moddalardan zaharlanishning oldini olish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish.

Amaliy tadqiqotlar:” Surunkali gepatit va jigar sirrozi etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davosi” mavzusini davo muolajalari usullari o'rganildi. Kasallik xavf omillarini aniqlash va davo samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy tibbiyot texnologiyalarning qo'llanilishi tahlil qilindi.

Natijalar: Klinik belgilari, diagnostikasi va davosi. ”Surunkali gepatit va jigar sirrozi” kasalliklarida, *Sirroz belgilari:* kasallikning tez rivojlanishi; jigar holatining yetishmovchiligi. Badan terisi asta-sekin sarg'ayadi, badanda ko'kimtir toshmachalar ko'payadi. Kasallik qaytalanganda har bir a'zoda suyuqlik yig'iladi, qorinda suv yig'iladi. Jigar va taloq kattalashadi. Jigarining qirrasi o'tkir bo'lib, og'riydi. Jigar faoliyati pasayadi, vena tomiri bosimining oshish alomatlari kuchayishi bilan xarakterlanadi

Davosi: Davolash uchun bemorlarga kuniga 3 martagacha qon tomirga tomchilab suyuqlik yuborib turiladi: glukoza, fiziologik suyuqlik, natriy bikarbonat, gemodez, sorbitol, oqsilli gidrolizat, glutamin kislotalar— poliglukin, reopoliglukin, anabolik gormonlar, vitaminlar, qonni tozalash, plazmoforez, gemosorbsiya, gemodializ usuli bilan va behushlikda paydo boʻlgan turli belgilarga qarshi davolanadi.

Munozara:

Zamonaviy davolash usullarining samaradorligi: Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki “Surunkali gepatit va jigar sirrozi” kasallilari ”da oʻz vaqtida koʻrsatilgan tibbiy yordam va aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va zamonaviy davo usullarini qoʻllash koʻplab asoratlarni oldini olishga imkon beradi.

Xulosa: “Surunkali gepatit va jigar sirrozi” kasallilari”ga sababchi boʻluvchi omillarni oldini olish va aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini toʻgʻri shakllantirish va bemorlarga oʻz vaqtida toʻgʻri tashxis qoʻyish davo muolajalar kursini oʻz vaqtida oʻtkazish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti www.moodle.sammi.uz sayti.
2. A.K. Jamolov, B.N. Toshmamatov, N.J. Roʻziyeva, M.A. Rasulova “Tez tibbiy yordam va favqulodda holatlar tibbiyoti” Toshkent-2024y ”Nurli qalblar”
3. Oʻ.O. Oripov, Sh.N. Karimov “Umumiy xirurgiya” Toshkent-2008 “Yangi asr avlodi”
4. “Terapiya ” M.F. Ziyayeva. Toshkent. 2007 yil.
5. Poʻlatova Sh.A., Saidova X.X. “Kattalarda hamshiralik parvarishi” II qism, Toshkent “Choʻlpon” nashriyoti, 2014 yil.

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Israilova Shoira Turg'unovna

I.F.N. Dotsent. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Ta'lim menejmenti" kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonining asosiy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, ularning samarali joriy etilishi natijasida yuzaga keladigan imkoniyatlar va muammolar tahlil qilingan. Maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar, istiqbolli loyihalar va ularning amalga oshirilish mexanizmlari haqida ham fikr yuritiladi. Tadqiqot yakunida raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yuzasidan xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, texnologik innovatsiyalar, sun'iy intellekt, elektron tijorat, raqamli infratuzilma, iqtisodiy o'sish, axborot texnologiyalari, elektron hukumat, raqamli xavfsizlik, ma'lumotlar bazasi, raqamli transformatsiya.

Kirish.

Globalashuv jarayonlari va texnologik taraqqiyot zamonaviy iqtisodiyotga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar hayotning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib borgan bo'lib, bu holat iqtisodiy faoliyat shakllarini ham o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot tushunchasi ham keng ommalashib, iqtisodiyotni boshqarishning, ishlab chiqarishni tashkil etishning va xizmatlar ko'rsatishning yangi modeliga aylandi. Raqamli iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. So'nggi yillarda bu borada qator qonun hujjatlari qabul qilinib, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmogda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning amaliyotdagi ko'rinishlari, afzalliklari

va yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va uning istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Asosiy qism.

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalar asosida shakllanadigan iqtisodiy tizim bo‘lib, unda mahsulot va xizmatlar yaratilishi, tarqatilishi, almashinuvi va iste‘mol qilinishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi. Mazkur model an‘anaviy iqtisodiy tizimlarga nisbatan ko‘plab ustunliklarga ega bo‘lib, u innovatsion yondashuvlar, tezkorlik, shaffoflik, ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lib, internet, mobil aloqa, kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta‘minot vositalarini o‘z ichiga oladi.
2. Elektron tijorat – tovarlar va xizmatlarning internet orqali sotilishi, elektron to‘lov tizimlari orqali hisob-kitob qilish jarayonlari.
3. Elektron hukumat (e-gov) – davlat xizmatlarining raqamli shaklga o‘tishi, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning soddalashtirilishi.
4. Raqamli moliya – kriptovalyutalar, blokcheyn texnologiyalari, onlayn bank xizmatlari va raqamli to‘lov tizimlari orqali moliyaviy faoliyatning tashkil etilishi.
5. Sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar (Big Data) – qaror qabul qilish, tahlil va prognozlashda keng qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari ko‘p qirrali bo‘lib, ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish;

Ma‘lumotlarga asoslangan aniq va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati;

Ijtimoiy xizmatlar sifati va qulayligini oshirish;

Korrupsiyaning kamayishi va byurokratik to‘siqlarning bartaraf etilishi;

Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va bandlik darajasining oshishi; Raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda innovatsion faoliyatni jadallashtirish. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida

qator muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron hukumat tizimi kengaytirilmoqda, aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron xizmatlar ko'rsatish jarayoni soddalashtirilmoqda, raqamli ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari joriy etilmoqda. Shuningdek, hududiy raqamlashtirish markazlari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda, sun'iy intellekt bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil qilinmoqda. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligida "aqlli texnologiyalar" joriy etilishi hosildorlikni oshirayotgan bo'lsa, ta'lim sohasida raqamli platformalarning keng qo'llanilishi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot rivojida ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: raqamli savodxonlik darajasining pastligi, texnologik infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarli emasligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, malakali kadrlar yetishmasligi va raqamli bo'linish muammosi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun izchil siyosat yuritish, texnologik sarmoyalarni oshirish va aholini raqamli kompetensiyalarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bugungi global taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiyotni boshqarishning zamonaviy modelini shakllantirmoqda. U innovatsion texnologiyalar orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish, xarajatlarni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib berish bilan ajralib turadi. O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning huquqiy, texnologik va institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllanmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish, xalq farovonligini oshirish hamda xalqaro maydonda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq, bu yo'nalishda hali hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar – kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, texnologik tengsizlik va kiberxavfsizlik tahdidlari mavjud. Shu sababli, kelgusida raqamli iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlantirish uchun izchil siyosat olib borish, innovatsion ekotizimni shakllantirish va barcha sohalarda raqamli savodxonlikni oshirish zarur. Raqamli iqtisodiyotning to'laqonli joriy etilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli turtki bo'lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: Ma'naviyat, 2008.

2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2020-yil.
3. Xodjayev N., Isroilov I. “Iqtisodiyot nazariyasi”. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021.
4. Tapscott, Don. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1996.
5. Brynjolfsson, Erik & McAfee, Andrew. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: Norton & Company, 2014.
6. Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2022.
7. OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. – OECD Publishing, 2019.
8. World Bank. Digital Economy for Africa Initiative (DE4A). – Washington D.C.: World Bank, 2020.
9. Axmedov A. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes muhitini rivojlantirish”. – T.: Innovatsiya, 2021.
10. Schwab, Klaus. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016.
11. Statista Research Department. Digital Economy – Statistics & Facts. – 2023.
12. Zokirova D. “O‘zbekiston raqamli iqtisodiyot sari: muammolar va istiqbollari”. – “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2022-yil, №3.

PEDAGOGIK MAHORAT

G.A. Alimjanova

Toshkent farmatsevtika instituti farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası katta o'qituvchisi

F.Z. Alimova

Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi katta o'qituvchisi

N.V. Shiltsova

Toshkent Farmatsevtika instituti farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik mahorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, o'qituvchilik faoliyatidagi o'rni hamda uni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Pedagogik mahorat – bu nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki didaktik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalar uyg'unligidir. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni rivojlantirish metodlari, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlarining ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, o'qituvchilik faoliyati, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, didaktik yondashuv, kommunikativ ko'nikmalar, psixologik tayyorgarlik, zamonaviy ta'lim metodlari, shaxsiy rivojlanish, pedagog kadrlar tayyorlash.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat o'z fanini chuqur bilishni, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishni ham talab qiladi. Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida samarali metodlardan foydalanishi, ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va ta'limning sifatini oshirishdagi eng muhim omillardan biridir. Hozirgi kunda ta'limda yuz berayotgan islohotlar, yangi texnologiyalarning joriy etilishi o'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, didaktik yondashuv, kommunikativ ko'nikmalar, psixologik bilim va kasbiy

kompetensiyalar uyg'unligi pedagog faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Ushbu maqolada pedagogik mahoratning nazariy asoslari, uni shakllantirish yo'llari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqsad – o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilashga ko'maklashishdir.

Asosiy qism.

Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuidir. Bu tushuncha nafaqat o'qituvchining bilim darajasini, balki uning o'quvchilar bilan muloqot qilishi, ta'lim jarayonini boshqarishi, individual yondashuvi, shuningdek, psixologik va didaktik yondashuvlaridan foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, interfaol metodlardan foydalanish zarurati pedagogik mahoratni yanada muhimlashtirmoqda.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

1. Kasbiy bilim va ko'nikmalar – o'qituvchi o'z faniga doir chuqur bilimga ega bo'lishi, bu bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda samarali metodlardan foydalanishi zarur. Didaktik materiallarni to'g'ri tanlash, dars rejasini tuzish, ta'lim vositalaridan unumli foydalanish pedagogik mahoratning muhim omillaridir.
2. Psixologik tayyorgarlik – har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, motivatsiyani oshirish, dars jarayonida ijobiy muhit yaratish o'qituvchidan chuqur psixologik bilimlarni talab etadi. Bu pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.
3. Kommunikativ ko'nikmalar – o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati pedagogik mahoratning ajralmas qismidir. Muloqot jarayonida ishonch uyg'otish, ijobiy munosabat o'rnatish, fikrni aniq va ravon yetkazish muhim ahamiyatga ega.
4. Innovatsion yondashuv – zamonaviy o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangiliklarni o'rganishi, ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etishi kerak. Kompyuter texnologiyalari, interaktiv usullar, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kunda pedagogik mahoratning zamonaviy talablari sirasiga kiradi.

5. Tarbiyaviy salohiyat – pedagog faqat bilim emas, balki tarbiya ham beruvchi shaxsdir. U o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishi, ularning dunyoqarashi va shaxsiy kamolotiga hissa qo‘shishi zarur.

O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari ham pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tashabbuskorlik, sabr-toqat, samimiylilik, intizom, mas’uliyat, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi sifatlar muvaffaqiyatli pedagog faoliyatining negizini tashkil etadi. Shu bilan birga, pedagogik kuzatuvchanlik, refleksiya qilish qobiliyati, o‘z faoliyatini tahlil qilib, xatolardan saboq chiqarish, doimiy rivojlanishga intilish pedagogik mahoratni chuqurlashtiradi. Bugungi kunda pedagogik kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ham pedagogik mahoratni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Malaka oshirish kurslari, treninglar, seminar va vebinarlar orqali o‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishlari, tajriba almashishlari uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu esa nafaqat o‘qituvchining o‘z ustida ishlashiga, balki ta’lim sifatining oshishiga ham xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat o‘qituvchilik kasbining yuragi hisoblanadi. Ustozlik burchini chin dildan ado etish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarda ilmga qiziqish uyg‘otish va ularga hayotda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish aynan pedagogik mahorat orqali amalga oshadi. Shu bois, har bir o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratini muntazam rivojlantirib borishga intilishi zarurdir.

Xulosa:

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchilik kasbining asosi, ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati esa bevosita pedagogning bilimdonligi, kasbiy tayyorgarligi, psixologik yondashuvi va shaxsiy fazilatlariga bog‘liqdir. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, pedagogik mahorat o‘z ichiga kasbiy kompetensiyalar, kommunikativ ko‘nikmalar, psixologik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv va tarbiyaviy salohiyat kabi muhim tarkibiy qismlarni oladi. Ular uyg‘unlashgan holda o‘qituvchining har bir darsni samarali tashkil etishi, o‘quvchilar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishi va zamon talablariga javob beradigan ta’limni shakllantirishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, pedagogik mahorat nafaqat bilim berish, balki har bir o‘quvchining ichki dunyosiga kirib borish, ularning shaxsiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Bu esa pedagogdan doimiy izlanishni, o‘z ustida ishlashni, yangiliklarga ochiq bo‘lishni talab etadi. Zamonaviy o‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, yangi metod va texnologiyalarni joriy etishga intilishi zarur. Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahoratni rivojlantirish — bu har bir o‘qituvchining ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak. Zero, ta’lim sifatini

oshirish, barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishda o'qituvchining kasbiy yetukligi va pedagogik mahorati muhim omildir. Shu bois, pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash, ularning kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borish, ularga zaruriy metodik va psixologik ko'mak ko'rsatish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev, N. (2020). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti.
2. Azizxo'jaeva, N.N. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU.
3. Hasanboyeva, O.M. (2021). Kasbiy pedagogik tayyorgarlik. Samarqand: «Zarafshon».
4. Shodmonqulova, G'. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
5. Abdullayeva, N. (2022). Zamonaviy ta'limda o'qituvchining roli va pedagogik kompetensiyalar. Toshkent: Ilm ziyo.
6. Shalva Amonashvili. (2015). Pedagogical Process as Education Creation. Moscow: Education Publishing.
7. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge.
8. Freire, P. (2000). Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum.
9. Richards, J.C., & Lockhart, C. (2007). Reflective Teaching in Second language Classrooms. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Brown, H.D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). New York: Pearson Education.

**SUN'IIY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA
YECHIMLAR. SIMSIZ TARMOQNI QURISHDA LTE NING AHAMIYATI**

Kayumova Shaxnoza Muhamadjonovna

Fan va texnologiyalar universiteti "Aniq fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

Dasturiy injiniring yo'nalishi 3/24 guruh talabasi

Gofurov Bagdan Vladimirovich.

Annotatsiya; Ushbu maqolada LTE texnologiyasining simsiz tarmoqni qurishdagi ahamiyatini keltirib o'tilgan. LTE texnologiyasi yuqori tezlik, keng qamrov, yuqori sig'im va mobillilik kabi afzalliklari bilan simsiz tarmoq infratuzilmasini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. LTE texnologiyasining turli sohalardagi qo'llanilishi, jumladan, shahar va qishloq hududlarida internet qamrovini ta'minlash, M2M aloqlarini o'rnatish, favqulodda vaziyatlarda aloqa ta'minoti va IoT texnologiyalarida qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: LTE , simsiz tarmoq, yuqori tezlik, internet qamrovi, IoT , M2M.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность технологии LTE при построении беспроводной сети. Технология LTE играет важную роль в развитии инфраструктуры беспроводной сети благодаря таким ее преимуществам, как высокая скорость, широкий охват, высокая пропускная способность и мобильность. В статье подробно описано применение технологии LTE в различных областях, включая городское и сельское интернет-покрытие, M2M-связь, экстренную связь и технологии IoT .

Ключевые слова: LTE , беспроводная сеть, высокая скорость, покрытие интернета, IoT , M2M.

Abstract: This article examines the importance of LTE technology in building a wireless network. LTE technology plays a major role in the development of wireless network infrastructure with its advantages such as high speed, wide coverage, high capacity and mobility. The article details the application of LTE technology in various

3. Hwang, GJ, & Chang, CY (2018). Innovative pedagogical strategies for enhancing student learning in technology-enhanced environments. *Computers & Education*, 127, 57-68. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2018.08.015>

4. Johnson, L., Adams Becker, S., & Estrada, V. (2020). *Horizon Report: 2020 Higher Education Edition*. Austin, TX: The New Media Consortium.

4. Johnson, L., Adams Becker, S., & Estrada, V. (2020). *Horizon Report: 2020 Higher Education Edition*. Austin, TX: The New Media Consortium.

5. Kimmons, R., & Veletsianos, G. (2019). The impact of educational technology on teaching and learning: A meta-analysis. *Educational Research Review*, 24, 1-16. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2018.10.001>

5. Kimmons, R., & Veletsianos, G. (2019). The impact of educational technology on teaching and learning: A meta-analysis. *Educational Research Review*, 24, 1-16. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2018.10.001>

6. Lee, K., & Ma, Y. (2020). The influence of digital learning environments on student engagement: A meta-analytic review. *Educational Psychology Review*, 32(2), 345-368. <https://doi.org/10.1007/s10648-019-09523-5>

6. Lee, K., & Ma, Y. (2020). The influence of digital learning environments on student engagement: A meta-analytic review. *Educational Psychology Review*, 32(2), 345-368. <https://doi.org/10.1007/s10648-019-09523-5>

The influence of digital learning environments on student engagement: A meta-analytic review. *Educational Psychology Review*, 32(2), 345-368.

<https://doi.org/10.1007/s10648-019-09523-5>

7. Hero son , MM CSS (CASCADING STYLE SHEETS) .

8. Ro' ziboy , TR , ABILOV, S., & MAMAYUSUFOV, M. (2024). Future Professional Education Students Professional Activity Development Methodology . «ACTA NUUZ », 1(1.4), 204-207.

9. Hero son , MM (2024). HISTORY OF DEVELOPMENT OF COMPUTER GRAPHICS. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 252-254.

10. Juraev , M., & Mamayusufov, M. (2022). Analysis of network topology using Venn diagram. *Science and Education*, 3(5), 306-311.

VO'K: 633.7/.9

KBK: 42.14

J-11

XUSHBO'Y RUTA (RUTA GRAVEOLENS L.) O'SIMLIGI URUG'CHILIGI VA KO'CHATCHILIGI

Mo'sinova Muxlisa Tolibjon qizi.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishi talabasi.

Jo'rayev Erkin

O'rmonchilik, dorivor o'simliklar va manzarali bog'dorchilik kafedrasini mudiri

Annotatsiya: O'simlikning yer ustki qismi tarkibidagi 0,25-1,2% efir moyi (sineol, penin, limonen, aldegidlar, kislotalar va boshqa birikmalardan tashkil topib) flavonoidlar (asosan rutin), alkaloidlar 0,5-1% gacha furokumarinlar bo'ladi. Furokumarinlardan bergapten va ksantotoksin olingan. Tibbiyotda ruta o'simligining yer ustki qismi preparatlari qon tomirlarning plazmasi hosil bo'lib chiqqan bosh og'rig'i, pnevmoniya, revmatizm, bolalarda tirishish bilan o'tadigan davolashni davolashda mahsulotlar.

Kalit so'zlar: Ruta graveolens L, Rutaceae, detsit, borona, limonen, ksantotoksin, pnevmoniya, kultivatsiya, mola Xushbo'y ruta-Ruta graveolens L., rutados - Rutaceae oilasiga mansub. Balandligi 70 sm. Yoqimli yarim butagacha bo'lgan hid. Poyasi yog'ochsimon, pastki qismi shoxlangan, har yili ko'p yillik novdalar hosil qiladi. Barglari oddiy, umumiy ko'rinishi uchburchak shaklida, ikki yoki uchta gulbarg bilan ajratilgan, kulrang-yashil, tagida uzun sopi bilan bir qatorda joylashgan. Barg plastinkalari cho'zilgan teskari tuxumsimon, uchi to'mtoq, ko'p dog'li (efir moyi saqlanadigan joylar). Gullari yashil-sariq, qalqonsimon to'pgulda to'plangan. Yuqori gullarda 5 ta gul kosasi va gulbarglari, qolganlari 4 ta, otalik 8-10 ta, onalik tugunlari 4-5 ta, yuqorida joylashgan. Mevasi 4-5 kamerali, sharsimon chashka. Iyun-iyul oylarida gullaydi.

O'stirish tafsilotlari. Ruta tabiiy sharoitda O'rta er dengizi, Janubiy Evropa, Osiyo, shu jumladan O'zbekistonda o'sadi. U Rossiya, Ukraina va Belorussiyada katta maydonlarda o'stiriladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining ayrim sug'oriladigan yerlarining kichik maydonlarida yetishtiriladi. Dorivor ruta o'simligi unumdor, mexanik jihatdan o'rtacha va tuzilgan tuproqlarga ekilsa yoki yer dukkakli ekinlardan ajratilsa yaxshi o'sadi va undan ko'p xom ashyo olish mumkin bo'ladi.

Kuzda shifobaxsh ruta oʻsimligi yetishtirish uchun yerlarni tayyorlashdan oldin uni 25-28 sm chuqurlikda haydab, gektariga 20-30 t goʻng va 40-50 kg fosforli oʻgʻit berib yuboriladi. Erta bahorda, yaʼni mart oyining boshlarida tuproq harorati (10-15 sm qatlamda) 15-20 ° S boʻlganda, ruta urugʻlari 1-1,5 sm chuqurlikda ekiladi, qator oraligʻi 15 sm, qator oraligʻi 70 sm. shuning uchun sabzavotlar ekish uskunalarida etishtiriladi. Ruta urugʻlar bilan koʻpaytiriladi. Oʻsimlikning urugʻi juda kichik boʻlgani uchun u sekin oʻsadi. Tuproq etarlicha nam boʻlsa, urugʻlar 6-8 kundan keyin unib chiqadi. Namlik yetarli boʻlmagan joylarda ekish bilan bir vaqtda sugʻorish uchun uchastkalar olinadi. Oʻsimlik erdan unib chiqqandan soʻng, etishtirish boshlanadi. Rutaning yaxshi rivojlanishini taʼminlash, undan sifatli va moʻl hosil yetishtirish maqsadida qator oralarini kultivatsiya yoʻli bilan yumshatib, begona oʻtlardan tozalaydi. Chunki begona oʻtlar va hasharotlar koʻproq zarar etkazishi mumkin. Oʻsimlik 2-3 ta haqiqiy barg hosil qilganda qatorlar begona oʻtlardan tozalanadi va har bir tupda 2-3 oʻsimlik qoldiriladi. Agar urugʻlar toʻliq unib chiqmagan boʻlsa, oʻsha joylarni toʻldirish uchun begona oʻtlar (remong) natijasida oʻsib chiqqan baquvvat oʻsimliklardan foydalanish tavsiya etiladi. Ruta oʻsimligi vegetatsiya davrida yaxshi oʻsishi va rivojlanishi uchun gektariga 40 kg miqdorida sof azot va 20 kg kaliyli oʻgʻit bilan oziqlanadi. Ikkinchi oziqlantiruvchi ruta oʻsimligi uyaga kirish davrida gektariga 30 kg azot va 20 kg fosforli oʻgʻit bilan oziqlanadi. Oziqlantirish har bir sugʻorishdan oldin amalga oshirilishi kerak. Sugʻorishdan soʻng, ruta oʻsimligining intervallari yumshatiladi va begona oʻtlardan tozalanadi. Ruta oʻsimligi ozuqa moddalariga talabchan boʻlgani uchun oxirgi oziqlantirishga qadar gullashdan oldin 30 kg azot va kaliyli oʻgʻit berish bilan tugatiladi. Oʻsish davrida rutenium birinchi yilda havo harorati va tuproq namligini hisobga olgan holda 7-8 marta sugʻoriladi. Ruta oʻsimligi ikkinchi yilda meva beradi. Ikkinchi va keyingi yillarda sugʻorish va oraliq ekishlar soni sezilarli darajada kamayadi va uni oziqlantirish xom ashyo yigʻib olingandan keyin amalga oshiriladi. Uning xomashyosi vegetatsiya davrida gullash davrigacha ikki marta yigʻib olinadi. Ruta mahsuloti yerdan 5 sm balandlikda qoldirib, pichan yoki silos yigʻish mashinasi bilan yigʻiladi. Ravon oʻsimligi vegetatsiya davrida yaxshi parvarishlansa (oʻgʻitlash, sugʻorish, oraliq ekish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi), gektariga 4-5 t yashil massa, 600-700 kg quruq mahsulot (barglari, gul) va 80-90 kg urugʻ olish mumkin. . Barcha madaniy oʻsimliklar singari, oʻrgimchak oqadilar, hasharotlar lichinkalari, barg sharbati vegetatsiya davrida ruta oʻsimligiga koʻproq zarar etkazadi. Kasallikning oldini olish uchun 10% oltingugurtli kaloid suspenziyasi va bargli eritma bilan davolanadi. Har qanday tuproqda muvaffaqiyat qozonadi, lekin quruq quruq tuproqda qattiqroq boʻladi. Ochiq quyoshli joyni afzal koʻradi. Qisman soyali himoyalangan quruq joyni afzal koʻradi,

lekin to'liq quyoshda muvaffaqiyat qozonadi. Yaxshi qurigan yoki toshloq tuproqni afzal ko'radi. Tuproqdagi ohakni yaxshi ko'radi. O'rnatilgan o'simliklar qurg'oqchilikka chidamli. Taxminan -10°C gacha, quruq tuproqda o'stirilganda pastroq haroratga chidamli. Ko'pincha oshpazlik va dorivor o't sifatida etishtiriladi, ba'zi nomlari bor navlari. Ko'kargan barglar apelsinga o'xshash yoqimli hidga ega. Bu nafas olish uchun eng yoqimli o'tlardan biridir. Rue o'z hidini ajoyib tarzda chiqaradi. Efir moyi barg yuzasi ostidagi bo'shliqda joylashgan bo'lib, uning ustida o'rtadagi bo'shliq bilan teshilgan hujayralarning yupqa qatlami joylashgan. Hujayralar shishadi va ichkariga egilib, ostidagi efir moyini bosadi, u barg yuzasiga suriladi va u erda chiqariladi. Rue ko'plab boshqa turlar uchun yomon o'simlik bo'lib, adaçayı, karam va shirin rayhon bilan yomon o'sadi. Bu atirgul va malina uchun yaxshi hamrohdur. Bu jinsdagi o'simliklar asal qo'ziqoriniga juda chidamli. Xususiyatlari: Jozibali barglar, qutulish mumkin, Shimoliy Amerikada mahalliy emas, Kesilgan gullar uchun mos, Quritilgan gullar uchun mos. Rue barglari butun vegetatsiya davrida yig'ib olinishi mumkin, ammo eng yaxshi vaqt bahorning oxiri - yozning boshi, gullashdan oldin. Rue odatda bahorning oxiridan yozning boshiga qadar, odatda may va iyul oylarida (Shimoliy yarim sharda) gullaydi. Rue nisbatan sekin o'sadigan o'simlik bo'lib, to'liq o'sishi va etukligiga erishish uchun taxminan 2-3 yil kerak bo'ladi. Rue odatda o'z-o'zidan unumdor.

O'simliklarni ko'paytirish. Urug' - eng yaxshi sovuq ramkaga pishishi bilan ekilgan, uni bahorning boshidan o'rtalariga qadar sovuq ramkaga ekish ham mumkin. Ular ishlov berish uchun etarlicha katta bo'lganda, ko'chatlarni alohida idishlarga soling va birinchi qish uchun issiqxonada o'stiring. Oxirgi kutilgan sovuqdan keyin bahor oxirida yoki yozning boshida ularni doimiy joylariga eking. Bahorning oxirida yosh kurtaklarning kesilishi. Yarim pishgan yog'ochning so'qmoqlari, iyul/avgust oylarida ramkada. Juda oson. Yozning boshida qatlamlash. Qadimgi o'simliklar ko'pincha o'z-o'zidan qatlamlanadi.

Tibbiy maqsadlarda foydalanish. O'simliklar kelajak uchun o'simliklardan foydalanishning har qanday salbiy ta'siri uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Dorivor o'simlikni ishlatishdan oldin har doim mutaxassisdan maslahat so'rang.

Xulosa: Ruta maishiy dori sifatida uzoq vaqtdan beri foydalanish tarixiga ega, ayniqsa ko'zlarni kuchaytiruvchi ta'siri uchun qadrlanadi. O'simlik tarkibida flavonoidlar (ayniqsa, rutin) mavjud bo'lib, ular kapillyarlarning mo'rtligini kamaytiradi, bu o'simliklarning ko'zni mustahkamlovchi obro'sini tushuntirishi mumkin. Uni ichkarida qo'llashda ehtiyot bo'lish tavsiya etiladi, ammo katta dozalarda

u zaharli bo'lib, homilaning tushishiga ham olib kelishi mumkin. Butun o't abort, antelmintik, antidot, spazmolitik, karminativ, qusish, emmenagogue, ekspektoran, gemostatik, oftalmik, qizarib yuboruvchi, kuchli ogohlantiruvchi, engil oshqozon va uterotonikdir. Yangi kurtaklarning tepalari dorivor jihatdan eng faol bo'lib, ular o'simlik gullashidan oldin to'planishi kerak va ularni yangi yoki quritilgan holda ishlatish mumkin. Infuzion isteriya, yo'tal, meteorizm va boshqalarni davolashda qo'llaniladi. O'simlik sharbati quloq og'rig'ini davolashda va bir-ikki barg chaynashda bosh aylanishi, asabiy bosh og'rig'i, yurak urishi va hokazolardan tezda xalos bo'lishi aytiladi. O'simlikda topilgan alkaloid abort qiluvchi, yallig'lanishga qarshi va spazmolitik ta'sirga ega. Gomeopatik vosita gullash boshlanishidan biroz oldin yozning boshida yig'ib olingan yangi o'tdan olinadi. Bu ko'zning zo'riqishi, bosh og'rig'i va cho'zilish kabi turli xil shikoyatlarni davolashda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov.O', Ergashev.A, Abzalov.A, Yo'lchiyeva.M, Mustafaqulov.D “Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi” Toshkent-2020 (54-56 betlar)
2. O'zbekiston respublikasi Sog' hosil Saqlash Vazirligi Toshkent Farmatsevtika Insituteti “Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiya” Toshkent – 2018 yil (55-58 betlar)
3. A.A.Matkarimova, T.X. Mahkamov, M.M. Maxmudova, X.Ya. Azizov, G.B.Vaysova “Botanika” Toshkent – 2020 yil.
4. Kannan, UV Babu Ruta graveolensning o'ziga xosligi va farmakognoziyasi Linn R.
5. Abduraimov O.S., Mamatqulova IEO'zbekiston florasidagi ayrim dorivor va ziravor turlarning ahamiyati. «Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari» Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari to'plami. 2022 yil 12 aprel, Andijon.B. 335-338.
6. Barabanov E. I. Botanika: talabalar uchun darslik. oliy darslik muassasalari. - M. : nashriyot uyi. Markaz "Akademiya", 2006. - B. 241. - 448 b. - ISBN 5-7695-2656-4 .
7. Blinova K. F. va boshqalar. Botanika-farmakognostik lug'at: Ma'lumotnoma. nafaqa / Ed. K. F. Blinova, G. P. Yakovleva. - M. : Yuqori. shk., 1990. - B. 233. - ISBN 5-06-000085-0 . 2014 yil 20 aprelda arxivlangan .

8. Qishloq xo'jaligi o'simliklarining dorivor xususiyatlari / Ed. M. I. Borisova. - Minsk: Urajai, 1974. - S. 105. - 336 p.

9. Kovaleva N. G. Xushbo'y hid // O'simliklar bilan davolash. O'simlik tibbiyoti bo'yicha insholar . - M.: Tibbiyot, 1972. - S. 214. (mavjud havola)

10. Vvedenskiy A. I. Genus 843. Ruta - Ruta L. // SSSR florasi = Flora URSS : 30 jildda / ch. rahbarligida va ostida boshlangan. ed. V. L. Komarova . - M.; L.: SSSR Fanlar akademiyasining nashriyoti , 1949. - V. 14 / ed. jildlar B.K. Shishkin , E.G. Bobrov . - B. 199-200. - 790 s. - 4000 nusxa.

11. Rue, rue oilasining o'simlikidir // Brokxaus va Efron entsiklopedik lug'ati : 86 jildda (82 jild va 4 qo'shimcha). - Sankt-Peterburg. , 1890-1907.

12. Ruta graveolens L. Ruta graveolens // Dorivor o'tlar va o'simliklar

13. Maxlayuk V.P. Ruta xushbo'y. Ruta graveotens L. // Xalq tabobatida dorivor o'simliklar.

14. Ruta graveolens L. IPCS Poisons Information Monograph (PIM) 475 . IPCS . 2014-yil 19-martda olingan. Arxivlangan 19-mart, 2014-yil.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Saitova Dilbar Muxamedqulovna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
saitovadilbar1982@gmail.com
Tel.: +998 99 679 2582

Annotatsiya

Mazkur maqola aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatining samaradorligini oshirish masalasiga bag'ishlangan. Unda ichki auditning iqtisodiy-ijroiyo nazorat vositasi sifatidagi o'rni, u orqali korxonada faoliyatining moliyaviy shaffofligini ta'minlash, ichki tartibni mustahkamlash va xatarlarni minimallashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Ichki audit xizmatining mavjud huquqiy asoslari, ularning amaliyotdagi joriy etilishi darajasi, auditorlar faoliyatining mustaqilligi va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Xususan, ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirish, riskka asoslangan yondashuvni joriy etish, strategik rejalashtirishga auditorlik tahlilini integratsiyalash masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro audit standartlari (IIA, COSO) va yetakchi korxonalar tajribasi asosida ilmiy tahlil olib borilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, ichki audit xizmatining tashkilot ichidagi funksional ahamiyatini oshirish, audit sifatini nazorat qilish, faoliyat samaradorligini o'lchashning mezonlari aniqlanadi. Maqola aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari, nazorat tuzilmalari, auditorlar va iqtisodiy tahlilchilari uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar. Ichki audit, audit samaradorligi, aksiyadorlik jamiyati, audit nazorati, riskga asoslangan audit, COSO modeli, audit rejasi, moliyaviy shaffoflik, axborot tizimi, auditor mustaqilligi, ichki nazorat, avtomatlashtirish, audit standartlari, IIA, audit ko'rsatkichlari.

Abstract

This article is devoted to the issue of increasing the efficiency of the internal audit service in joint-stock companies. It analyzes the role of internal audit as a tool of economic and executive control, ways to ensure financial transparency of the enterprise's activities, strengthen internal order and minimize risks. The existing legal framework of the internal audit service, the level of their implementation in practice, the independence of auditors' activities and factors affecting efficiency are highlighted. In particular, the issues of automating internal audit processes, introducing a risk-based

approach, and integrating audit analysis into strategic planning are considered. The article conducts a scientific analysis based on the laws of the Republic of Uzbekistan, international audit standards (IIA, COSO) and the experience of leading enterprises, and develops practical recommendations. As a result, criteria for increasing the functional significance of the internal audit service within the organization, controlling audit quality, and measuring the effectiveness of its activities are determined. The article can serve as a useful resource for management bodies, control structures, auditors and economic analysts of joint-stock companies.

Keywords. Internal audit, audit effectiveness, joint-stock company, audit oversight, risk-based audit, COSO model, audit plan, financial transparency, information system, auditor independence, internal control, automation, audit standards, IIA, audit indicators.

KIRISH

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatining samarali faoliyati korxonaning moliyaviy barqarorligi, strategik maqsadlariga erishish, xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimining mukammalligi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalarining ko'p qirrali faoliyati, kapital va resurslar harakatining murakkabligi, auditorlik nazoratini faqat tashqi tomon bilan cheklash inkonsizligini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida manfaatdor tomonlar sonining ko'pligi, moliyaviy axborotlarning ochiqligi va haqqoniyliigi talab etiladi. Bu esa ichki audit xizmatining o'zni va ahamiyatini keskin oshirmoqda.

Ichki audit korxonada ichidagi mustaqil tahlil va nazorat vositasi bo'lib, u faoliyatda mavjud xatoliklar, noto'g'ri qarorlar, noto'liq hisobotlar va moliyaviy tavakkalchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilishda ichki auditning ahamiyati ortib bormoqda. Biroq uning samaradorligi ko'p jihatdan tashkil etilish darajasi, auditorlarning tayyorgarligi, mustaqilligi va texnik imkoniyatlariga bog'liq. Amaliyotda ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatlari shaklan mavjud bo'lsa-da, mazmunan sust faoliyat yuritmoqda. Asosiy sabablardan biri – standartlarga asoslanmagan audit rejasi, yetarli texnik va metodik baza yo'qligi, hamda audit natijalari asosida chora ko'rilmasligidir.

Ushbu maqola orqali ichki audit xizmatining zamonaviy model asosida qanday optimallashtirilishi mumkinligi, xususan, COSO, IIA standartlariga asoslangan tizimlar, riskga asoslangan audit metodologiyasi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari atroflicha yoritiladi. Maqsad – ichki

audit xizmatini faollashtirish, u orqali aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv sifatini yaxshilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ichki audit sohasida nazariy va amaliy adabiyotlar tahlili ushbu yo‘nalishning dolzarbligini yaqqol ko‘rsatadi. Xalqaro miqyosda The Institute of Internal Auditors (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan “International Professional Practices Framework” (IPPF) ichki auditning asosiy standartlarini belgilaydi. Bu hujjatlarda audit missiyasi, asosiy tamoyillar, sifatni ta‘minlash, etik kodeks va nazoratni baholash uslublari belgilangan. Ayniqsa, COSO modeli (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) asosida ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash tizimi amaliy jihatdan keng qo‘llaniladi. Ushbu modelda nazorat muhiti, xatarlarni aniqlash, nazorat faoliyati, axborot va aloqa, monitoring bloklari mavjud.

O‘zbekistonda esa “Aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risida”gi Qonun, Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar ichki audit xizmatining yuridik asoslarini belgilaydi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, ichki nazorat va risk-menejment bo‘yicha tayyorlangan mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar – S. Shermatov, B. Akhmedov, R. Kaplan, M. Power kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ichki auditning samaradorligi ko‘proq u qanday yondashuv asosida yuritilishiga bog‘liq. Riskga asoslangan yondashuv, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, audit natijalarining baholanishi va audit sifatining ichki tahlili – bu omillar ilmiy manbalarda yetarlicha yoritilgan. Biroq ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, axborot tizimlari bilan integratsiyalash, auditorlarning malakasini oshirish bo‘yicha kompleks yondashuv hali to‘liq shakllanmagan.

Maqolani yozish jarayonida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Birinchidan, huquqiy-hujjat tahlili asosida ichki audit xizmatiga oid O‘zbekiston qonunlari, reglamentlari va xalqaro standartlar (IIA, COSO, ISO 19011) o‘rganildi. Ikkinchidan, empirik tahlil usuli orqali O‘zbekistondagi 15 ta aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatining tashkil etilishi, faoliyati, rejalashtirish va hisobot tizimi o‘rganib chiqildi. Shu orqali mavjud muammolar, ichki reglamentlar, audit rejasi sifati, risk tahlilining mavjudligi baholandi.

Uchinchi yondashuv sifatida SWOT tahlil metodikasi orqali ichki audit xizmatining kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash amalga oshirildi. Bundan tashqari, yarim tuzilgan intervyular yordamida audit komissiyalari a‘zolari, bosh auditorlar, aksiyadorlar va rahbariyat vakillari fikrlari olindi. Natijalar

SPSS dasturida statistik tahlil qilinib, korrelyatsiya va variatsiya tahlili orqali ichki auditning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

To'rtinchidan, xalqaro tajriba tahlili asosida AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Rossiya aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatining amaliyoti, ularning avtomatlashtirilgan tizimlari, risk indikatorlari va hisobot tahlillari o'rganildi. Bu metodologik yondashuv maqolaning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirib, asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilishiga xizmat qildi.

NATIJARLAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston hududidagi 15 ta aksiyadorlik jamiyatida ichki audit xizmatining real holati o'rganilib, bir nechta muhim natijalarga erishildi. Birinchidan, ko'plab jamiyatlarda ichki audit xizmatining mavjudligi shakli bo'lib, mazmunan uning asosiy vazifalari to'liq amalga oshirilmayotgani aniqlandi. Audit rejalarini ko'pincha tasodifiy tuziladi yoki faqatgina tekshiruv hisobotiga aylantiriladi, tahliliy xulosa va tavsiyalar esa e'tibordan chetda qoladi. Bu holat, asosan, auditorlar yetarli mustaqillikka ega emasligi yoki rahbariyat tomonidan bosim ostida qolayotgani bilan izohlanadi.

Ikkinchi natija — aksiyadorlik jamiyatlarining atigi 27 foizi ichki auditda riskka asoslangan yondashuvni qo'llaydi. Ko'pchilik jamiyatlarda audit xatolikni aniqlashga emas, balki mavjud hujjatlar asosida formallikni bajarganlikka qaratilgan. Bu esa ichki auditni rivojlanishdan to'xtatib, faqat tekshiruvchi organ roliga tushirib qo'yimoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, aynan riskga asoslangan audit tizimini joriy etgan jamiyatlarda moliyaviy xatolar, xarajatlar samarasizligi va resurslardan noto'g'ri foydalanish holatlari ancha kamaygan.

Uchinchi muhim jihat — ichki audit xizmatining avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minot bilan integratsiyalashganligi darajasi past. Aksariyat auditorlar hali ham qo'lda, Excelda yoki Word fayllarida hisobot yuritishadi. 1C, SAP, Oracle ERP kabi tizimlar ichki auditga to'liq integratsiyalashmagan. Biroq bu texnologiyalar joriy etilgan jamiyatlarda audit jarayonining aniqligi, tezligi va shaffofligi sezilarli oshgan.

To'rtinchidan, ichki audit natijalari asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar soni yetarli emas. Aksiyadorlar yoki kuzatuv kengashlari ichki audit hisobotini ko'rib chiqishsa-da, ulardan strategik qarorlar chiqarishga unchalik e'tibor qaratilmaydi. Bu esa auditorlik ishining samarasini pasaytiradi.

Tadqiqotlar shuningdek, auditorlarning malaka darajasida farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Ilmiy darajali, xalqaro sertifikatga ega auditorlar faoliyat yuritayotgan jamiyatlarda ichki audit ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, boshqa hollarda bu xizmat passiv yuritiladi. Natijada, ichki audit samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida

— metodologik yondashuv, texnologik ta'minot, auditor malakasi va rahbariyatning e'tibori ajratib ko'rsatildi.

XULOSA

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatining samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ushbu ilmiy-amaliy tadqiqotlar bir necha muhim xulosalarni shakllantirishga asos bo'ldi. Ichki audit buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratning ajralmas bo'lagi bo'lishi barobarida, u strategik boshqaruv qarorlarini asoslashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda O'zbekistonda bu xizmatning tashkiliy va funksional jihatlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, ko'pgina hollarda formal yondashuv ustunlik qilmoqda.

Ichki audit xizmatining samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq: bu auditorning mustaqilligi, nazoratga asoslangan yondashuv mavjudligi, riskni baholash tizimining ishlashi, texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi va yuqori rahbariyatning e'tiboridir. Shuningdek, ichki audit xizmatining faoliyati aksiyadorlik jamiyatining umumiy boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Bu esa audit xulosalari asosida real strategik qarorlar chiqarilishini ta'minlaydi.

Maqola davomida aniqlandi:

1) Ichki audit xizmatining mustaqilligini ta'minlash zarur. Bu xizmat bevosita kuzatuv kengashiga yoki aksiyadorlar yig'ilishiga bo'ysunishi kerak.

2) Riskga asoslangan yondashuvni joriy etish — audit samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biridir.

3) Avtomatlashtirilgan audit tizimlari (masalan, SAP, 1C, ACL, IDEA) yordamida audit monitoringini real vaqt rejimida olib borish imkoniyati yaratilishi lozim.

4) Auditorlar malakasini oshirish uchun IIA, ACCA, CIA kabi xalqaro sertifikat dasturlariga qatnashishni rag'batlantirish zarur.

5) Ichki audit natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida monitoring qilish va ularning bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ichki audit xizmatining samaradorligini oshirish aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini faollashtiradi, moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi va investorlar uchun ishonchli axborot muhitini yaratadi. Bu esa mamlakatda korporativ boshqaruv tizimining taraqqiyotiga bevosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» от 26 апреля 1996 г., № ЗРУ–370 // Национальная база данных законодательства. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://lex.uz/docs/27695>

2. The Institute of Internal Auditors. International Professional Practices Framework (IPPF). – Altamonte Springs, FL: ИА, 2017. – 122 p.
3. COSO. Enterprise Risk Management — Integrated Framework. – Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2013. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.coso.org>
4. Каплан Р.С., Нортон Д.П. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. – М.: Олимп-Бизнес, 2020. – 320 с.
5. Пауэр М. Теория и практика внутреннего аудита. – М.: Альпина Паблишер, 2019. – 248 с.
6. Жураев Ш.К., Муртазаев С.М. Внутренний аудит в корпоративном управлении. – Ташкент: Иқтисодиёт, 2021. – 216 с.
7. Каширин В.П. Внутренний контроль и аудит в акционерных обществах. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 280 с.
8. Shermatov S. Corporate Governance and Internal Audit Integration in Uzbekistan // Economic Review. – 2022. – №1. – С. 44–52.
9. Муртазаева Н.М. Автоматизация внутреннего аудита на предприятиях. – // Бухгалтерский учет, анализ и аудит. – 2023. – №3. – С. 22–27.
10. Internal Audit Manual. Asian Development Bank. – Manila: ADB, 2020. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/616121/internal-audit-manual.pdf>

MULOQOT SHAKLLANISHIDA OILANING O‘RNI

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna

O‘zMU, “Psixologiya” kafedrasi mudiri,

Psixol.f.d.prof.

Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi

O‘zMU, amaliy psixologiya talabasi

Anotatsiya. Oila insonning shaxsiy hayoti uchun ham, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan eng muhim maskan. Shu boisdan ham shaxsning rivojlanishi va shaxslararo munosabat o‘rnatib muloqotga kirishishi uchun oila katta ahamiyatga ega. Shaxsdagi muloqot xususiyatlarini va kommunikatsiya o‘rnatish jarayoni oiladan shakllanib jamiyatda qaror topadi. Ushbu maqolada shaxslararo mulqotni shakllanishida oilaning o‘rnini yoritib beramiz.

Kalit so‘zlar: muloqot, oila, shaxs, kommunikatsiya, farzand, interaktiv, perseptiv, verbal, noverbal, imo-ishora, tovush tembri, intonatsiya, tana harakati.

Abstract. The family is the most important place that is crucial for both the personal life of a person and the social, economic, and cultural development of society. Therefore, the family is of great importance for the development of the individual and the establishment of interpersonal relationships and communication. The characteristics of communication in a person and the process of establishing communication are formed in the family and are established in society. In this article, we will highlight the role of the family in the formation of interpersonal relationships.

Keywords: communication, family, person, communication, child, interactive, perceptive, verbal, nonverbal, gesture, timbre of sound, intonation, body movement.

Аннотация. Семья является важнейшим местом, которое имеет решающее значение как для личной жизни человека, так и для социального, экономического и культурного развития общества. Поэтому семья имеет огромное значение для развития личности и установления межличностных отношений и общения. Особенности общения у человека и процесс установления общения

формируются в семье и закрепляются в обществе. В данной статье мы выделим роль семьи в формировании межличностных отношений.

Ключевые слова: общение, семья, личность, коммуникация, ребенок, интерактивный, перцептивный, вербальный, невербальный, жест, тембр звука, интонация, движение тела.

Kirish. Oiladagi sog'lom va samimiy muloqot madaniyati nafaqat oilaviy munosabatlarning barqarorligi, balki farzandlar tarbiyasi, o'sib kelayotgan yosh avlodda muloqot ko'nikmlarini shakllantirish, shuningdek, jamiyat barqarorligi va ma'naviy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonda ijtimoiy-psixologik omillarning ahamiyati katta. Oiladagi muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun jamiyatdagi qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda oilaviy munosabatlarning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va axloqiy.

Muhokama. Oiladagi muloqot madaniyatining shakllanishi, shuningdek, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar jamiyatning axloqiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlariga bevosita ta'sir etadi. Ushbu jarayonni rivojlantirishda turli ijtimoiy va pedagogik omillar muhim rol o'ynaydi. Quyida oiladagi muloqot madaniyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ko'rib chiqamiz:[1]

1. Oilaviy muhiting ta'siri – oiladagi munosabatlar, o'zaro hurmat va mehr-muhabbat nafaqat er va xotin o'rtasida, balki oilaning boshqa a'zolari (ota-onalar, qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singillar) bilan samimiy muloqot muhitini yaratishga yordam beradi va o'z navbatida, oilaviy muloqot madaniyatini shakllantirishga bevosita ta'sir qiladi. Umuman olganda, oilada ijobiy atmosferaning mavjudligi muloqot madaniyati rivojlanishiga asos bo'ladi.

2. Milliy qadriyatlar va an'analar – har bir oilaning o'ziga xos qadriyatlari ham o'z o'rnida muloqot madaniyatini belgilaydi. O'zbek oilasida er va xotin muloqotining qadriyatlarga asoslangan muayyan qoliplari mavjud. Masalan, “ayollarning o'z umr yo'ldoshlariga “siz” tarzida murojaat qilishlari belgilangan me'yor bo'lib, “siz”ning “sen”ga almashinuvi o'zbek nutq odatining qo'pol buzilishidan dalolatdir” . Shuningdek, o'zbek oilalarida er va xotin oilada birbiriga “dadasi/onasi” deb murojaat qilishi ham an'anaga aylanib qolgan bo'lib, bu ham oilaviy munosabatlar va oilaviy muloqotga ijobiy ta'sir qiladi.

3. Jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning roli – mahalla, maktab va boshqa ijtimoiy tashkilotlar oilaviy tarbiya va muloqot madaniyatining muhim shakllantiruvchilari hisoblanadi. Ular oilaviy muloqotning ahamiyatini targ‘ib qilishda va targ‘ibot ishlarida muhim rol o‘ynaydi.

4. Axloqiy me‘yorlar va gender tengligi – jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni ta‘minlash ham, o‘z navbatida, oila ichidagi muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Ota-onalik munosabatining muloqot va emotsional jihati bolaga nisbatan emotsional-qiyamat munosabati va unga bo‘lgan muhabbatni o‘z ichiga oladi. G.A.Arina, E.B.Ayvazyan va M.V.Maklakova ota-ona va bolaning emotsional tajribasi va muloqot xususiyatlarini tasvirlashda,[2] boshqa psixologlar T.V.Bragin va R.V.Ovcharova onaning bolalarga bo‘lgan emotsional munosabatida ota-ona pozitsiyasini ko‘rib chiqadi[3]. Shuni ta‘kidlash kerakki, ota-ona sevgisining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu g‘amxo‘rlik hisoblanib, psixologiyada g‘amxo‘rlik tushunchasi ko‘pincha boshqa insonga nisbatan harakat munosabat sifatida qaraladi. A.A.Baranov va M.V.Belokrylovaning so‘zlariga ko‘ra "g‘amxo‘rlik boshqa odamning (masalan, bola) ehtiyojlari, maqsadlari, qadriyatlarini anglash, uning farovonligini oshirish maqsadida rivojlanish tendentsiyalari tajribalarini amalga oshirish darajasi, shuningdek, sharoit yaratishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi[4].

Natija va tahlil. Hammamizga ma‘lumki, oilaning kommunikativ vazifasi oila a‘zolarining o‘zaro muloqot va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Muloqot-shaxslararo munosabatlar va o‘zaro ta‘sirning alohida shaklidir[2]. U 3 xil ko‘rinishda bo‘ladi: 1) o‘zaro fikr almashinuv-kommunikativ ko‘rinish.

2) o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishi-interaktiv ko‘rinish.

3) o‘zaro bir-birini tushunish-pertseptiv ko‘rinish.

Kommunikativ muloqot 2 xil ko‘rinishda bo‘ladi:[2] 1. Verbal; So‘z va uning ma‘nosi orqali amalga oshiriladi. Verbal muloqot bu nutq hisoblanadi.

2. Noverbal muloqot. Noverbal muloqot bu nutqsiz muloqot hisoblanadi. Bularga: imo-ishoralar, tovush tembri, intonatsiya, tana harakati kabilar kiradi.

Biz asosiy ma'lumotni o'zga kishilar bilan suhbatda 10-30% gacha verbal kommunikatsiyadan olamiz, 65-80% ma'lumotni esa noverbal kommunikatsiyadan olamiz. Noverbal ishoralarning miqdori va sifati insonning yoshiga bog'liq, masalan, bolalardagi noverbal ishoralar katta yoshli odamlarnikidan ko'ra oson tushuniladi. Bundan tashqari, bunga jins turi, odam tabiati, ijtimoiy maqomi, millati ta'sir o'tkazadi. Masalan, ingliz psixologi ma'lumotiga ko'ra, bir soatli suhbat davomida finlyandiyalik - 1 ta, italiyalik - 80 ta, fransuz - 120 ta va meksikalik - 120 imo-ishoradan foydalanar ekan[5].

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishi turli xil ko'rinishda bo'ladi:

1. Buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a'zolari aloqasi.
2. Ota-onaning o'zaro munosabatlari.
3. Ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot.
4. Farzandlarning o'zaro munosabatlari tartibi.
5. Kelinning barcha oila a'zolari bilan munosabatlari.
6. Kelinlarning (ovsinlar) o'zaro muloqot qilishlari kabilar.

Oilada shaxslararo muloqotni ikkiga ajratiladi: 1. Ijobiy–oilani mustahkamlovchi muloqot.

2. Salbiy–oilani zil ketishiga olib keluvchi muloqot[5].

Oilaning ijobiy muloqotini ko'proq rivojlantirish kerak. Buning uchun eng avvalo ota-onada samarali muloqotni shakllantirish haqidagi bilim darajasi yetarli bo'lishi zarur. Shuning uchun ham ota-onaning bilim saviyasi, muloqot madaniyati va farzandlar bilan oshkora muloqot qilishiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Odamlar bilan muomala qilish san'ati ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi.

Oiladagi muloqotga ta'sir etuvchi to'siqlar:[3] 1. Ahloqsizlik

2. Bilimsizlik.
3. Huquqni buzilishi.
4. Urf-odatlarni bajarilishdagi kamchiliklar.

5. Yoshlarning uquvsizligi.

Biroq hozirgi kunda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborning pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi, holatlari mavjud, hatto oiladagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a'zolarining ayrimlarida stress, suitsid kabi noxush holatlarning kelib chiqishi ham ko'plab kuzatilmoqda. Bunday noxush holatlarni oldini olish uchun eng avvalo oila a'zolari o'rtasida oshkora, yaqin, o'zaro tushunishli, ishonchli muloqotning amalga oshishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, lozim bo'lsa, bu borada, yoshlarga tegishli bilimlarni berish, aholi uchun ota-onalar psixologik maslahatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, ota-onalar uchun treninglar tashkil etish borasidagi ishlarni takomillashtirish lozim.

Xulosa. Oila bir jamiyatning bo'g'inini tashkil etadi. Agarda oila barqaror bo'lsa, jamiyat gullab-gurkirab yashnaydi. Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Shu boisdan ham oiladagi tarbiya va shaxs shakllanishidagi muloqotning to'g'ri olib borilishiga e'tibor qaratish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hosilova Z. «Oila – eng katta tarbiyachi» «Xalq ta'lim» jurnali. T; 200 y, 3-son.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. - T.: «Fan va texnologiya», 2008.
3. Lutfullaev N. «Oilaning tarbiyaviy ahamiyati» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent; 2005 y. 2 son.
4. Maqsudov T. tahriri ostida «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent; «O'qituvchi» 1991 y.
5. Ro'zimatov E. E Bolaning hayotga ijtimoiylashuv jarayonlarida oilaning o'rni «Oilaning ijtimoiy-demografik muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami 2018.

**«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» VOLUME-3,
ISSUE-05 (31-MAY)
MUNDARIJA**

1	O'ZBEKISTON SHAROITIDA INOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna, Tojiboyev Javlonbek Ravshanbek o'g'li, Sharipov Boymurod Hatam o'g'li	6-15
2	RUKOLA O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYA Daminov Samandar Iskandar o'g'li, Nazarov Sirojiddin G'ani o'g'li, Maxmadaliyeva Muazzam Mansurovna, Izzatova Risolat Bahriddin qizi, Izzatova Risolat Bahriddin qizi, Abdullayev To'lqin Uchqun o'g'li	16-22
3	TERMIZ SHAROITIDA ZA'FARON (CROCUS SATIVUS L.) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI Boynazarova Sayyora Ro'ziqulovna, Shopo'latova Xonzodabonu Baxtiyor qizi	23-27
4	TERMIZ SHAROITIDA ZA'FARON (CROCUS SATIVUS L.) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI Boynazarova Sayyora Ro'ziqulovna, Shopo'latova Xonzodabonu Baxtiyor qizi	28-31
5	MAGNIYNING INSON ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI Ochildiyeva Uljon Ilxomovna, Rasulov Abdusamat Abdujabborovich	32-37
6	BOYSUN TOG' MINTAQASI DORIVOR O'SIMLIKLARINING INSON SALOMATLIGIDAGI AHAMIYATI Boynazarova Sayyora Ro'ziqulovna, Jumayeva Gulnora G'ani qizi	38-42
7	VALERIANA O'SIMLIGINI URUG' YETISHIRISH VA DORIVOR MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI: MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI Jo'rayeva Vazira To'ychiyevna, Qulsoatova Munisa Eshmurod qizi	43-46
8	ZAMONAVIY YUK TASHISH VAGONLARINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI VA ENERGO TEJAMKORLIK AFZALLIKLARI Xasanova Marta Axmedovna	47-50
9	APPLICATION OF STRUCTURAL DEFORMATION MONITORING BASED ON CLOSE-RANGE PHOTOGRAMMETRY TECHNOLOGY Sobirxonova Sarvinoz Nodirovna	51-57
10	KONTEKST-ERKLI GRAMMATIKALAR ASOSIDA O'ZBEK TILIDA SINONIMLAR ORASIDA BOG'LANISHLARNI MODELLASHTIRISH IMKONIYATLARI Azatova Enajon Nematjon qizi	58-63

11	ONLAYN TA'LIM VA UNING SAMARADORLIGI Jabborova Shahrida, Fayziyeva Umida Asadovna	64-69
12	TA'MINLAGICH-TOZALAGICHINI TOZALASH SAMARADORLIGIGA VA JIN ISH UNUMDORLIGIGA TA'SIRINING TADQIQOTLARI Omonov Z.J, Umarov U.E., Irgashev B.A.	70-80
13	SURUNKALI GEPATIT VA JIGAR SIRROZI ETIOLOGIYASI, KLINIKASI, KECHISHI, DAVOSI. Mirazimova Iroda Bahodirovna, Raxmonova Sayyora Normuradovna, Karimova Nigora Xakimovna, Usmonova Dilfuza Muhiddinjonovna	81-86
14	RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Israilova Shoira Turg'unovna	87-90
15	PEDAGOGIK MAHORAT G.A. Alimjanova, F.Z. Alimova, N.V. Shiltsova	91-94
16	SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA YECHIMLAR. SIMSIZ TARMOQNI QURISHDA LTE NING AHAMIYATI Kayumova Shaxnoza Muhamadjonovna, Gofurov Bagdan Vladimirovich.	95-102
17	SIMLI TARMOQ YARATISHDA SWITCH QURILMASINING AHAMIYATI Kayumova Shaxnoza Muhamadjonovna, Xoshimov Ilxom Kenjatoy o'g'li	103-109
18	THE ROLE OF VERBS FOR COMMUNICATION Khamrayeva Nozima Akbar qizi	110-114
19	THE IMPORTANCE OF GRAMMAR IN SPEAKING SKILLS Karimova Iroda Baxtiyor qizi, Khamrayeva Nozima Akbar qizi	115-118
20	THE ROLE OF GLOBALIZATION FOR LANGUAGE LEARNERS Karimova Iroda Baxtiyor qizi, Khamrayeva Nozima Akbar qizi	119-122
21	INTEGRATION OF PEDAGOGICAL SOFTWARE TOOLS AND DATABASES IN AUTOMATION OF THE LEARNING PROCESS Mamayusufov Mirkomil Qahramon o'g'li, Suyunov Jamshid Fakhridin o'g'li	123-126
22	XUSHBO'Y RUTA (RUTA GRAVEOLENS L.) O'SIMLIGI URUG'CHILIGI VA KO'CHATCHILIGI Mo'sinova Muxlisa Tolibjon qizi, Jo'rayev Erkin	137-141

23	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH Saitova Dilbar Muxamedqulovna	142-147
24	MULOQOT SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna, Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi	148-152
	MUNDARIJA	153-155

